

37

N 55

37/081


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G. NIYOZOVA, M. AHMEDOVA

**PEDAGOGIKA TARIXIDAN
SEMINAR MASHG'ULOTLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 140000 - o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriat yo'nalishi barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

2032890



«NOSHIR»
Toshkent — 2011

Niyozov, Gulmurod.

N55 Padagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari: Ta’lim sohasi 140000-o‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani, bakalavriat yo‘nalishi: barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun / G. Niyozov, M. Axmedova; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. — N.: Noshir, 2011. — 140 bet.

I. Axmedova, Maloxat.

Har qanday tarix o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prikdir. U xalqning, millatning o‘tmishi, bugungi taraqqiyoti va kelajak istiqbollaridan xabardor etadi.

Pedagogika nazariysi va tarixi fanining Pedagogika tarixi bo‘yicha seminar mashg‘ulotlari uchun tuzilgan mazkur o‘quv qo‘llanmadagi mavzularning har biri o‘ziga xos yondashuv asosida — chizmalar, jadvallar va turli eslatmalar orqali berilgani uchun ular o‘qituvchi va talabalarning foydalanishiga qulaylik tug‘diradi.

O‘quv qo‘llanma Pedagogika tarixi fanining dasturi asosida seminar mashg‘ulotlar rejasiga mo‘ljallab tuzilgan.

Shu bilan birga har bir mavzuga oid mustaqil tayyorlanish uchun berilgan savollar, mushohada yuritish, eslab qolishga doir asosiy qoida va misollar talabalarda qiziqish uyg‘otadi mustaqil izlanishga tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘qib tahlil qilishga undaydi.

T a q r i z c h i l a r :

F. Yuzlikayev — Nizomiy nomidagi TDPU profesori, pedagogika fanlari doktori;

Q. Ahmedov — TVDPI, «BS pedagogika-psixologiya» kafedrasi mudiri, p.f.n., dos.

KIRISH

Pedagogika tarixi xalq tarixi, uning turli davrlarda o‘ziga xos talablar asosida ilm-fan, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy jabhalarga qo‘shtgan hissasi in’ikosidir.

Pedagogika tarixi insoniyatning asrlar davomida orttirgan tarbiya va madaniyatga oid tajribalarini bugungi davr talablariga moslab o‘rganuvchi ijtimoiy fandir.

Demak, pedagogika tarixi ta’lim-tarbiya sohasidagi har qanday nazariy va amaliy hodisalarga davr talabi asosida yondashadi va tahlil qiladi. U tarbiya nazariyasi va amaliyotining turli tarixiy bosqichlaridagi xilma-xil k‘rinishlaini ochib berib, jamiyatdagi ilg‘or qarashlarning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatadi.

Pedagogika tarixi fani pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyat tarixi, O‘zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, etnografiya, arxeologiya, axloqshunoslik, adabiyot tarixi, tilshunislik, jamiyatshunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Bugungi kunda pedagogika tarixini o‘rganish — qadimiy yozuvlar, bitiklar, qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi, muqaddas diniy kitoblar, Sharq mutafakkirlarining merosi, pandnomalar, jahon mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, zamonaviy pedagogika fani darg‘alarining konseptual g‘oyalari, ta’lim-tarbiya va maorif ishini yuksaltirishga doir hukumat qarorlari, milliy istiqlol g‘oyalariga asoslangan milliy maskura materiallari, O‘zbekiston Prezidentining ta’lim-tarbiyaga oid asarlariga asoslanadi.

Darhaqiqat, o‘z Vatani tarixini bilish, donishmand halqimiz ko‘p asrlar davomida to‘plagan tajribalar va jamiyatdagi madaniy-ma’rifiy taraqqiyot bilan bog‘lik an’analarni aks ettirib kelgan pedagogika tarixining o‘tmishi, istiqbollari va bugungi o‘zgarishlarini o‘rganish davr talabidir.

Shu ma’noda bugungi talaba-yoshlar pedagogika tarixini o‘rganish orqali o‘tmishdagi madaniy merosimizdan, islom dini

yaratgan ma'naviy boyliklardan samarali foydalanishlari muhim ahamiyatga ega. Ismoil al-Buxoriy, Moturidiy, Zamahshari Xorazmniy, Imom at-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy singari buyuk allomalarimizningadolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, axloq, odob, iymon va e'tiqod haqidagi ta'limotlari va fikrlaridan halqimizni, ayniqsa, yoshlarni bahramand qilish — umuminsoniy qadriyat-larni to'g'ri anglash hamda, ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun nihoyat zarur.

Vatan va millatga sadoqat tarbiyasi yoshlarning go'zal axloqli, komil inson bo'lib yetishishida asosiy omil hisoblanadi. Komil insonni tarbiyalash masalasi esa Kadrlar tayyorlash milliy modelining bosh muddaosidir.

Komil inson deganda har jihatdan yuksak shakllangan, aqliy va ahloqiy barkamollikka erishgan insonni tushunamiz. Inson esa ta'lim va tarbiya orqali kamolotga erishadi, unda milliy tuyg'u shakllanadi va rivoj topadi. «Milliy tuyg'u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-onalardan meros qilib olingen va bola o'z ota-onasiga, butun dunyoga aytgan birinchi so'zida ifodalanadi. O'z halqiga, uning an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon jamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni o'z — Vatanining jonkuyarini tarbiyalashi mumkin emas»¹.

Demak, bugungi yoshlarimizda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishdagi asosiy omillardan biri ajdodlarimizning boy intellektual merosi bilan har tomonlama tanishtirishdir. Jumladan, Sharq mutafakkirlaridan Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Sa'diy Sherziy, Ibn Sino, Beruniy, Farobi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Rudakiylarning ta'lim va tarbiya xususidagi qarashlari, nazariyalaridan xabardor bo'lish joizdir. Chunki ajdodlarimiz asrlar davomida tilimiz, dilimiz va dinimizni

¹ I. A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: O'zbekiston, 1992. — 77-78-betlar.

asrab, sharqona urf-odatlarimizni avaylab, yetuk va barkamol avlodlarni tarbiyalab kelganlar.

Biz mazkur qo'llanmada baholi qudrat ulug' mutafakkirlarning ta'lif-tarbiyaga oid qarashlarini qisqa va lo'nda ta'riflab, ularning ibratli hayat yo'li hamda pedagogik g'oyalari yorqin ifodalangan asarlarini tushunarli darajada, ko'rgazmali asosda yoritishga harakat qildik.

Mazkur qo'llanma «O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lif sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash Oliy ta'lif muassasalari o'qituvchilari hamda talabalari uchun «Pedagogika tarixi» kursiga oid seminar mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan.

**I-mavzu: ENG QADIMGI MADANIY-MA'RIFIY
YODGORLIKLARDA TA'LIM-TARBIYA
MASALALARI (VII ASRGACHA)**

Reja:

1. Eng qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi davlatlar — So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta'lism-tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
3. Xalq og'zaki ijodidagi ta'lism-tarbiyaning mazmuni va ifoda usullari.
4. «Avesto» — Zardushtiylik ta'lomitining muqaddas kitobi.

O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan tub yerli xalqlarning ajdodlari ming-ming yillardan beri o'ziga xos ulkan madaniyat va ma'rifat yaratganlari ma'lum. Ular dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishgan, so'ng ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgan, urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda yuksak natijalarga erishganligini tarixdan yaxshi bilamiz.

Miloddan avvalgi ming yilliklar davomida Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona va Parkana kabi o'lkalarda sak, massaget, so'g'd kabi turli qabila va elatlar yashaganlar. Mazkur elatlar va qabilalar hozirgi Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi xalqlarning ajdodlari hisoblanadi.

Qadimgi turkiy va forsiy tillarida gaplashgan bu xalqlarning hayoti, moddiy-ma'naviy madaniyat yodgorliklari, urf-odatlari qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya», shuningdek, Kvint Kursiy Ruf, Pliniy, Ptolomey, Plutark, Arrion, Diodor kabi olimlarning yirik asarlari, Xitoy tarixchilarli, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit

turk» asari va O'rxun Yenisey bitiklari kabi yodnomalar, adabiy-tarixiy manbalarda o'z ifodasini topgan va bizgacha yetib kelgan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga kelib so'g'd, runik, oromiy, uyg'ur yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa yunon yozuvi, va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma'lum vaqtarda qo'llanib kelingan. Bu yozuvlar ta'lim-tarbiyaning dastlabki kurtaklariga zamin bo'lib, inson ahloqiy tafakkurining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga eng qadimiy yozuvlardan ham oldinroq paydo bo'lgan xalq pedagogikasi og'zaki ijod namunalari ham o'z milliy asoslariga ko'ra ta'lim-tarbiyaviy g'oyalilar, qarashlarning yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Insoniyat taraqqiyotida avloddan-avlodga ko'chib, tarix sinovlaridan o'tib kelayotgan umuminsoniy va ma'naviy-madaniy qadriyatlar, milliy an'analar, axloqiy omillar va urf-odatlar xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, xalqimizning ma'naviy-madaniy tafakkurini yuksaltirishga hissa qo'shgan boyligidir.

Bilib qo'ygan yaxshi!

Eng mo''tabar qadimgi qo'lyozma «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti. «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi. U nafaqat diniy kitob emas, balki ijtimoiy, falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy qimmatga ega bo'lgan noyob yodgorlikdir.

Bilib qo'ying!

«Avesto» Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat qilib oltin taxtaga yozdirib qo'yilgan. «Avesto»ning kitob holidagi matni 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan.

«Avesto»ning eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopengagen kutubxonasida saqlanadi.



I. «Avesto»dagi ma'naviy-axloqiy va hayotiy-tarbiyaviy g'oyalar

1. Axloq me'yorlariga rioya qilish yo'l-yo'riqlari (ta'limot)¹.

1) Pindori Nek (Ezgu fikr): Tangrining yagonaligiga ishonmok, iymonda sobitlik, tavakkul, qanoat, xayrixohlik, sulhjo'ylik, kechirimli bo'la bilish, ishonch, shijoatli, rahmli va muruvvatli bo'lmoq, pok-tiynatlik, insof, xushhulqlik, beozorlik, ochiqyuzlik, ehsonlilik, nafsni chegaralash, kasb va ilmni sevmoq, mas'uliyatlilik va xaqiqatparast bo'lmoq.

2) Guftori Nek (Ezgu so'z): Tangriga hamdu sano aytmoq, to'g'riso'zlik, ahdida sobitlik, haqgo'ylik, salom va ta'zimda bo'lmoq, to'g'ri va rost guvohlik bermoq, shirinkalomlik, o'ylab, sinab gapirmoq, rost qavllik.

¹ H. Hamidov. «Avesto» fayzlari. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. — 31-bet.

3) Raftori Nek (Ezgu ish, faoliyat): Tangri va payg‘ambar bergen farz va sunnatlarga so‘zsiz itoat etmoq hamda ularni bajarmoq, yaxshi ishlash, omonatga xiyonat qilmaslik, ojizlarni qo‘llash, serg‘ayrat bo‘lmoq, ota-onva ustod hukmiga farmonbardor bo‘lmoq, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehmondo‘slik, parxezkorlik, yomon ishlardan yuz o‘girmoq, mehribonlik, insonparvarlik, jamiyat qonunlariga itoat etmoq, o‘tganlarni esda tutish, xaqqiqattalab bo‘lmoq, bemorlar holidan xabar olib turmoq, muhtojlarga yordam berish, o‘z ishi va kasbiga mehr qo‘yish, adolatli bo‘lmoqdir.

II. Muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olishga doir

1) Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, qum bilan ko‘mib tashlash, shu yo‘l bilan mikroblar o‘ldirilgan yoki kamaygan.

2) Otash, issiqlik va sovuqlik ta’siri bilan yo‘qotish, «Avesto»da otash poklovchi va ofatni ketkizuvchi vosita hisoblanadi. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirish mumkin.

3) Kimyoviy yo‘l: kul, sırka, sharob, turli giyohlar (isfand — isiriq, mixak, sadaf, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo‘li bilan. Bularning ko‘pi hozir ham mikroblarni o‘ldiruvchidir.

4) Uy hayvonlarini boqish va ko‘paytirish sharoitlarini yaxshilash, parranda va boshqa hayvonlarga behuda ozor bermaslik, ularning bemahal o‘limiga sabab bo‘lmaslik uqtirilgan. Shu bilan birga kasal tarqatadigan hayvon va hashorotlarni yo‘qotishga da’vat etilgan.

5) «Avesto»da issikliq, sovuq havo, ochlik, bo‘kib ovqat eyish, ruhiy ixtirob, buzilgan taom eyish, tozalikka rioya qilmaslik ko‘p kasalliklarning asosiy manbai deb topilgan.

6) Yuz-qo‘lni, sochni bir kunda bir necha marotaba yuvib yurishga da’vat qilish bilan dastro‘mollar, tish tozalagich (misvok)ni qanday asrash yo‘llari ko‘rsatilgan.

7) Soch va tirnoqlarni o‘z vaqtida tozalab olib turish, ularni odamlar nazari va qadami tushmaydigan, parranda, it va mushuk kovlab olmaydigan darajadagi chuqurlikka ko‘mib tashlashni qat’iy talab qilingan.

III. «Avesto»da oila va ayol erki talqini

1) Nikohdan so‘ng tomonlarning birida asabiy noqislik, telbalik alomati zohir bo‘lsa, ikkinchi tomon bu nikohdan voz kechish huquqiga ega.

2) Er erkaklik qobiliyatiga ega bo‘lmagan taqdirda ayol ajralish imkoniyatidan foydalana oladi.

3) Uch yil davomida ham er oilaning moddiy jihatini ta’minalashga ojizlik qilib, hatto ayolini boqa olmasa, xotin bunday erni tashlab keta oladi, ya’ni taloq qiladi.

4) Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino qil-ganlarini sezsa, bunday nikoh «harom» bo‘ladi hamda tomonlar bir-birlarini taloq qiladilar.

5) Agar xotinning hayoti er zulmidan xavf ostida qolsa, u o‘z justini taloq qila oladi.

6) Xotin o‘z eridan qoniqmay, nojo‘ya, g‘ayrishar’iy xattiharakatlar qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi. Erkak kishi uylanish paytida oldingi xotinini bekitsa-yu, to‘ydan keyin bu sir fosh bo‘lsa, bunday nikoh botil hisoblanadi.

7) Erkak yoki xotin Zardusht dinidan yuz o‘girsa, ya’ni boshqa dinni qabul etsa, taloq vojibdir. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko‘ra, jumladan ig‘vo, tuhmat, er-xotinning o‘zaro kelishmovchiligiga, ota-onasi bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohning bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan. Xotin-qizlar orasida uchrab turadigan bo‘hton, chaqim-chilik, xusumat gunohi azim sifatida qattiq qoralangan, gap tashuvchi, ig‘vogarlar darra urish bilan jazolangan¹.

¹ H. Hamidov. «Avesto» fayzlari. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. — 31-bet.

ZARDUSHT NASIHATLARI

1. Dono o‘z aqlu farosati bilan nodon qalbini yoritmog‘i lozim.
2. Ey mardum! Shunday kishi gapiga qulqoq tutginki, u donishmand va rostlik tarafdori bo‘lsin.
3. Kim farosatli, oqil va to‘g‘ri bo‘lsa, parvardigori olam uning homiysidir.
4. Keksalar gapiga qulqoq soling va andisha bilan mulohaza yuritib, yaxshi bilan yomonni o‘zingiz ajratib oling.
5. Otashdek pok va duraxshon bo‘ling!
6. Pokxilqat kishigina Tangri inoyatiga erishadi.
7. Jahonga haqorat ko‘zi bilan qaraydigan kishilar poktiynatlikdan yiroqdirlar.
8. Poktiynat kishilar to‘g‘rilik va do‘stlik tarafdoridirlar.
9. Pok xulqli yurt hamisha yuksalish va taraqqiyotda bo‘ladi.
10. Kishilar yaxshi xulq bilan kamolot va mangulikka erishadilar.
11. Har bir kishi andisha, so‘z va ishda muqaddas aqlga suyanmog‘i lozim.
12. Aqli raso kishi baxtli va farovon yashaydi.
13. Biz hayvonlarning ko‘payishi, parvarishi, ularga oziq-ovqat tayyorlash, binolar qurish payidan bo‘lmog‘imiz darkor. Hatto o‘zimizga oziq-ovqat, kiyim-kechak hozirlash uchun ham chorvador bo‘lmog‘imiz lozim.
14. Yaxshi ustozlar Tangriga yaqin odamlardir.
15. Nodonining ibodat paytida raqsga tushgisi keladi.
16. Odamlarga yaxshilik qilmoq - dunyodagi eng mo‘tabar odatdir.
17. Tangri shomu sahar bandalariga yordam beradigan odamlarni yoqtiradi.
18. Rost so‘z sendan qoladigan eng qutlug‘ yodgorlikdir.
19. Adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan odamni yaxshi odam deyish mumkin.
20. Qaerda ikki tan bir-birini qo‘llasa, o‘sha erda ish yurishadi.
21. Rost amaldan boshqa hech narsa bilan shug‘ullanma.
22. Hammaga yaxshilik tilaydigan odamlarga yaxshilik etsin.

23. Do'stlik rishtasini poklik bilan mahkam tuting.
24. Yer yuzining yaxshilari adog'siz daryodirlar.
25. Poklik - inson tug'ilganidan umrining oxirigacha qilinadigan eng yaxshi amaldir.
26. Kim yolg'on so'zga og'iz ochsa, baxt qushi undan qochadi.
27. Gapiruvchi nodon bo'lsa xam, tinglovchi dono bo'lmog'i zarur.
28. Sukut - eng buyuk odob.
29. Vatanning tutuni ham shirin.
30. Qiz bolani ura ko'rmang, xonadoningiz baxtsizlikka uchraydi.
31. Ovqatlanish paytida gapirmoq gunohi azimdir.

Xalq pedagogikasidagi g'oyalalar - yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan etuk, ma'rifatli, bilim va hunarni egallagan, odob-axloq qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan, go'zal didli va zavqli qilib etishgirishdir.

Xalq pedagogikasini o'rganish orqali o'quvchilar milliy-madaniy fazilatlar — tavoze, sadoqat, marhamat, shafqat, hayo, muruvvat, vafo, ko'r kam xulqli odamlarda mujassamlanishi, xirs, baxillik, takabburlik, adovat, ig'vo, xasad, munofiqlik, hiyonat, chaqimchilik kabi yaramas illatlar esa yovuz hulqli kishilarda bo'lishini bilib oladilar.



Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanadigan savollar:

1. Ibtidoi jamoada bolalar mehnati qanday tashkil qilingan?
2. Gerodotning «Tarix» kitobida «daryo suviga tupurmanglar, hatto qo'l yuvvmanglar» deb yozadi. Bundan kelib chiqadigan mohiyatni tushuntiring.
3. Bizgacha etib kelgan epik rivoyatlarga ko'ra ajdodlarimizning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
4. «Avesto»ning vatani qayer?
5. Zarodusht ta'llimotida qaysi yosh balog'at yoshi hisoblangan?
6. Xalq maqollaridai beshtasini keltiring va izohlang.
7. Xalq kashif etgan «Bekinmachoq», «Quvlashmachoq». «Zag'zog'on», «Aylanma darra», «O'rta qo'llimni top», «Ayyor tulki», «Tortishmachoq» kabi o'yinlar bolalardagi qaysi qobiliyatlarni o'stirishga yordam beradi.
8. Xalq ertaklari nomini kim ko'p biladi?
9. Ona allasi xalq ijodining noyob namunasidir.
10. Xalq dostonlarida ko'prok qaysi insoniy fazilatlar kuyylanadi?
11. Topishmoqlarni bilasizmi? U aqlga-aql qo'shadi.

Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lgan «Alpomish» dostonidagi quyidagi obrazlarni to'g'ri sharxlab bera olasizmi?

No	Obraz	Ijobiy xususiyatlari	Salbiy xususiyatlari	Tarbiyaviy ahamiyati
1.	Hakimbek			
2.	Barchin			
3.	Boybo'ri			
4.	Boysari			
5.	Qorajon			
6.	Surxayl maston			
7.	Qaldirg'och			
8.	Ultontoz			
9.	Qultoy bobo			

Quyidagi xalq maqollarini o'rganining va izohlang:

1. Barvaqt qilingan harakat - hoclilga berar barakat.
2. Vaqting ketdi-baxting ketdi.
3. Vaqt g'animat, o'tsa - nadomat.
4. Daraxt yaprog'i bilan ko'r kam, odam mehnati bilan.
5. Yer xazina, mehnat kaliti.
6. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lur chiroylik.
7. Yigit husni mehnatda.
8. Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'lja qolar.
9. Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan rizqing unar.
10. Sendan harakat — mendan barakat.
11. Bilimli kishi o'zar, bilimsiz kishi to'zar.
12. Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

Tavsiya etiladigan manbalar:

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. — T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. — T.: O'zbekiston, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. — T., 1997.
4. «Alpomish». — T., 1993.
5. Yo'ldoshev J., Xasanov S. «Avesto»da axlokiy-ta'limiy qarashlar // Xalq ta'limi. — T., 1992. 6-7-sonlar.
6. Jumaboev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. -T.: O'zbekiston, 1980.
7. Sarimsoqov B. Qadimgi davr fol'klori. — T.: «Fan», 1988.
8. Zunnunov A. va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.
9. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixidan qo'llanma. — T.: O'qituvchi, 1996.
10. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: «Sharq», 2000.

2-mavzu: HADIS ILMINING PAYDO BO'LISHI VA MASHHUR MUHADDISLARNING XIZMATLARI

Reja:

1. Hadis va hadis ilmiga hissa qo'shgan muhaddislar.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy hayoti va ijodiy faoliyati.
3. Al-Buxoriyning «Al-adab al-Mufrad» asaridagi ta'lif va tarbiya uslublari.
4. Imom at-Termiziy. «Sunani Termiziy» asarining hadis ilmida tutgan o'rni.

Hadislar Islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi mo'tabar manba sanaladi. Ularda payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom musulmonlarning moddiy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o'zaro ahillik, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi qilgan nasihatlari va yaxshi fazilatga erishish yo'llari bayon etilgan.

Buni yodda saqlang!

Islom dinining asosiy qonuni (dastur ul-amali) Qur'oni Karimdan keyin uni sharhlovchisi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasulullohning hikmatli gaplari va qilgan ishlari, ya'ni qavllari, fe'llari va taqrirlari - ul zotning hadislari hisoblanadi.


Payg'ambarimiz vafotidan keyin hadislarni yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin unutilib ketishi mumkinligini hisobga olib, xalifalar ishonarli hadislarni toplashga farmon berdilar.

Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar sifatida Rabez ibn Sabeh, Said bin Abi Aruba, Malik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar ko'rsatilgan.

Buni yodda tuting!

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita to‘plam (as-sahih as-sita) ni yaratgan muhaddislar bizning vatandoshlarimiz bo‘lib, ular hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar.

«Al-kutub as-sita» (olti kitob) ni quyidagicha tasvirlash mumkin.



Imom al-Buxoriy kim bo'lgan? Imomlar imomi va muhadislar peshvosi **Abu Abdulloh Ibn Ismoil al-Buxoriy** milodiy hisob bilan 809 yil 13 mayda Buxoroda tavallud topganlar.

Go'dakligidayoq otadan yetim qolib ona qo'lida katta bo'lgan Muhammad 10 yoshlaridanoq arab tili va hadis kitoblarini o'qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishadi.

Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, quvvai muhofazalari o'tkir olim edilar. Rivoyat qilishlaricha, qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marta mutolaa qilsalar, hammasi yod qolaverar edi. Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra, yuz ming sahih (ishonarli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchhsiz) hadisni yod bilar ekan.

Mushohada qiling!

Agar Imom Buxoriy yodlagan 300000 hadisni 4 jildlik «al-Jome, as-Sahih» miqdori bilan, ya'ni 7275 ta hadis bilan solishtirsak, 165 jild bo'ladi. Demak, Buxoriy shuncha jildga sig'adigan hadislarni yod bilgan.

Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitgan. Undan to'qson ming kishi ishonchli hadislarni eshitgan. Manbalarga ko'ra, al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan. Uning 90 ga yaqin ustozlari bo'lgan.

Buni bilib qo'ying!

Islom Karimov: Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxri-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir.

Haşadgo'ylar ig'volari ta'siri ostida amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhayli va Imom Buxoriy munosabatlari yomonlashadi. Amir Xolid buyuk allomani ona shahri Buxorodan chiqib ketishga farmon beradi.

Imom Buxoriy Samarqand ulomalarining taklifi bilan yo'lga chiqadi. Ammo Samarqandga yetolmay unga yaqin Xartang qishlog'ida yashovchi qarindoshlari G'olib ibn Jibriyl uyida bir

O'QUV ZALI

TATU KUTUBXONASI
369263 SO'ZI

necha kun bemor yotgach, milodiy 870-yil 31 avgustda 62 (13 kuni kam) yoshida olamdan o'tadi.

Bilib qo'ying!

Insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo'shgan barcha islom ahliga ma'naviy ozuqa baxsh etgan Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko'ra Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'tirof etilgan «Al-Jome' as-Sahih» kitobidan keyin yaratgan «al-Adab al-Mufrad» («Adab durdonalari») asarida axloqiy qadriyatlarni bayon etadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy ushbu asarida axloq, odob haqida so'z yuritar ekan, odamlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani z'zozlashga, mehr oqibatli, pok va iymonli bo'lishga dav'at etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanligini ta'kidlaydi.

«Al-Adab al-Mufrad» asarida 1322 ta hadis va xabarlar 644 bobda jam qilingan.

Quyidagi hadislarni o'rghaning va sharhlang:

1. Ey Rasululloh, «Men yaxshilikni kimga qilsam bo'ladi?» Rasululloh: «Uch karra onangga, keyin otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga».

2. Rasulullohdan «Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi nima?» — deb so'rashdi. Rasululloh: «Insonlarga berilgan fazilatlarning eng yaxshisi yaxshi axloqdir», dedilar.

3. Rasululloh: «Qiyomat kuni menga eng yaqin bo'luvchilar xalffa (axloqda) yoqimliroq bo'lganlardir».

4. «Ogoh bo'linglar! Gunohlarning eng kattasi Olloh Taologa shirk keltirish, ota-onaga oq bo'lish va yolg'on gapirmoq, tuhmat qilmoqdir».

5. «Zino, mast qiladigan ichimliklarni ichish va o'g'rilik — o'taketgan qabih ishlar bo'lib, oxiratda ham, bu dunyoning o'zida ham jazosi belgilangandir».

Bilib qo‘ying!

Abu Iso Muhammad at-Termiziy 824-yili Termiz yaqinidagi Bug‘ (hozirgi Sherobod tumani) qishlog‘ida tug‘ilgan.

Imom at-Termiziy Imom al-Buxoriyga shogird bo‘lgan. Uning eng katta asari «Sunan» bo‘lib, bugungi kunda shoir Mirzo Kenjabek tomonidan «Sunani Termiziy» nomi bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan va nashr qilingan (2- jilddan iborat).

Umrining so‘ngi yillarda at-Termiziy ko‘zlarini ojiz bo‘lib qoladi va 892 yili ona shahri Termizda vafot etadi.

Imom at-Termiziyning «Sunan» kitobida keltirilgan hadislarda ta’lim-tarbiya, axloq-odobga oid fikrlar ko‘p uchraydi. Chunochi, u insonda yaxshilik fazilatlarini takomillashtirishni quyidagi hadislarda bayon etadi: «Olloh nazdida eng yaxshi do‘sit deb doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishilarga aytildi». «Olloh nazdida eng yaxshi qo‘shti o‘z qo‘shtilariga yaxshilik qilguvchidir», «Odamlarga shukur aytmaydigan kishi Ollohga ham shukur qilmaydi».

Imom at-Termiziy to‘plagan hadislari orasida axloq-odobga, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalashga da‘vat kuchli: «Chinakam sabr-toqat deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytildi», «Haqiqiy mo‘min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytildi».

Umuman, Imom at-Termiziyning ma’naviy qadriyatlarga doir merosi, axloq-odob va ta’lim-tarbiyaga doir qarashlari, dunyoqarashini o‘rganishda va ulardan hozirgi ta’lim - tarbiyada foydalanishda u to‘plagan hadislari va «Sunan» kitobining ahamiyati g‘oyat katta.

Mavzu bo‘yicha mustaqil tayyorgarlik uchun savollar:

1. Al-Buxoriy onasi va akasi bilan haj safariga jo‘naganda necha yoshda edi? Safar jarayonida qaysi shaharlarda bo‘ladi?
2. Imom al-Buxoriy necha yoshidan boshlab o‘z asarlarini yozishni boshladi?
3. «Al-Adab al-Mufrad» asarining I-24-boblari asosan qaysi masalalarga bag‘ishlanadi?

4. Hadislar qaysi xalifa farmoni bilan to'plandi va yozma shakliga kelirishga ruxsat berildi?
5. Mo'min kishiga vafotidan keyin savobi tegib turadigan amali solihlar nechta? Ularni keltiring.
6. At-Termiziy asarlari nomini keltiring?
7. At-Termiziy qachon vafot etdi, qaerda?
8. «Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishilarga gapirish esa ilmni zoe qilishdir» hadisini sharhlab bering.
9. Hadis ilmining bugungi ta'lim-tarbiyadagi o'rnini aytинг.
10. Hadislarda ezzulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug'lanadi. Qaysi shahvoniy odamlar va illatlar qoralanadi?


Bilib qo'ying!

Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'ladi:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- қambag'alligida ham sadaqa berib turmoq.

Buni yodda saqlang!

Hadislarda insonning kamolga etishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks etgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onaga va kattalarga, qarindoshlarga g'amho'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'stlik, tinch-totuvlik va boshqalardan iboratdir.



Eslab qoling!

Hadislarda yetim molini yeish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gaplarni ko'p gapirmoq gunoh deb ta'kidlanadi.

Hadislар orqали xalqning turmush tarzini yaxshilashga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy ishlarga savob deyiladi. Bular: xarobazorlarni obod etish, ekinzorlarni ko'paytirish, madrasalar va masjidlar qurish, ariq-zovurlar qazib suv chiqarish kabilardir.

Myshohada uchun

«Parvardigori olam buyuk zotlarni o'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa yer yuzida sanoqli. Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki, Ona Vatanimiz Ollohnинг nazariga tushgan ana shunday diyordir» (Islam Karimovning Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqidan).

Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. — T.: Sharq, 1999.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab, al-Mufrad. — T.: O'zbekiston, 1990.
3. O. Musurmonova. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — T.: O'qituvchi, 1996.
4. A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: Sharq, 2000.
5. B. Ziyomuhammedov va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat nashriyoti, 2000.
6. Usmonxon xoji Temurxon o'g'li va Baxtiyor Nabixon o'g'li. Imom al-Buxoriy muhaddislar sultonи. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2004.
7. Anvar Hojiahmad. Jannat kaliti. — T.: Mavarounnahr, 1998.

3-mavzu: SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA UNDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI (IX-XIII ASRLAR)


Reja:

1. Sharq uyg'onish davri va unda ilm-fanning rivojlanishi yo'nalishlari.
2. Abu Nasr Farobiyning hayoti va faoliyati.
3. Abu Nasr Farobiy ta'lism tarbiya to'g'risida.
4. Farobiyning axloqiy va ilmiy-falsafiy ta'minoti.

Islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab xalifaligidagi ilm-fan taraqqiyoti tufayli ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar Mavarounnahrda va Xurosonda IX asrda ma'naviy ko'tarilish, **uyg'onish davrini** boshlab berdi.

Al-Ma'mun tomonidan tashkil etilgan «Baytul-hikma» («Doshishmandlar uyi») — Akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi va Shapq hamda G'arb ilm-fanining taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir ko'rsatdi.

Butun Sharqdagi kabi Mavarounnahrda ham ilm-fan va ma'rifat sohasida mashhur faylasuf va munajjimlar, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, ta'lism tarbiya bo'yicha ilmiy asarlar bilan nom qoldirgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.



Eslab qoling!


Bog'doddagi mashhur «Baytul-hikma» olimlari orasida Markaziy Osiyolik Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Abbas Ibn Sayd Javhariy, Ahmad Ibn Markaziy kabilar ham bo'lgan.

«Baytul-hikma» olimlari orasida hamyurtimiz Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy alohida mavqega ega bo'lgan. Ahmad Farg'oniy uning taklifi bilan 815-yilda yozib tugatgn astronomiyaga oid asarini muhokamaga qo'yadi, ilmiy jamoa unga yuqori baho beradi. Oqibat natijada yosh olim Ahmad Farg'oniy bu nufuzli maskanning haqiqiy a'zosi etib qabul qilinadi. Xorazmiy vafotidan so'ng Ahmad Farg'oniy bu jamoaning yetakchi allomalaridan biriga aylanadi, uning dovrug'i butun O'rta va Yaqin Sharqqa yoyiladi.

Abu Nasr Farobi. Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' ibn Tarxon Farobi 873-yili tavallud topgan. Mashhur arabshunos olim Bayhaqiyning yozishchicha, «Shayx Abu Nasr al-Farobiyning oti Muhammad ibn Tarxon bo'lib, asli Turkistonning Farob degan joyidan. «Muallimi soniy» («Ikkinch muallim») deb taxallus olgan. Islom o'lkalari olimlari orasida undan oldin bunchalik o'tkir odam bo'limgan edi»¹.

U boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oladi. Shosh, Samarqand, Buxoro shaharlarida, keyinchalik Arab xalifaligining yirik shaharlaridan biri bo'lgan Bog'doda bilim olishni davom ettiradi, arab Sharqida buyuk olim sifatida shuhrat qozonadi. Farobi 950 yil dekabrida vafot etgan.

Eslab qoling!



¹ Bayhaqiy Farobi haqida — Abu Nasr Farobi. «Fozil odamlar shahri». — T.: Xalq merosi, 1993. — 192-bet.

Farobiy asarlari:

«Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o‘rganish kerak?», «Substansiya haqida», «Falsafa manbaalari», «Mantiqqa kirish», «Masalalar manbai» va b. Jami 160 dan ortiq.



Farobiy ta'lomitiga ko‘ra:

Ta'lim faqat so‘z va o‘rganish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan.

Ta'lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Bilib qo‘ying!

Farobiy ta'limgartarbiya berish usullarini ikkiga bo‘ladi:

Birinchi usul: Qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlan-tiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinci usul: Majbur etish yo‘lidir. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroin xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emasdir.

Farobiy deydi: «Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon

ishlardan saqlanadigan bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

Farobiylar ilmiy-pedaogogik ta'lilotining ahamiyati

Farobiylar o'z davridagi yoshlarni ta'lim, bilim, hunar egallashlari, faoliyat ko'rsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildiradi. Bu fikrlar hozir ta'lim-tarbiyada g'oyat muhimdir.

Farobiyning ta'lilotiga ko'ra:

1. Ahloqiy fazilatlar - bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatlarini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatli bo'lish xislatlaridir.

2. Ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob mezonlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi.

Farobiyning ilmiy xulosalari:



Buni eslab qoling!

Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida bilimlarni o'rganish tartibini birma-bir sanab o'tadi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangan tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon jismlari haqidagi ilmlarni o'rganishi lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat - o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi.


Bundan keyin, insonni o'rganishga kirishamiz va insonning inson bo'lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o'rganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib - aniqlab olamiz.

Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun savollar:

1. Abu Nasr Farobi qachon va qaerda tug'ilgan?
2. Farobiyning qanday asarlarini bilasiz?
3. Farobiyning «Aql!»ga bergen ta'rifini keltiring.
4. Farobi yunon olimlaridan kimlarning asarlariga sharhlar yozgan?
5. Farobiyning pedagogik ta'lilotlarini keltiring.
6. Farobi komil insonni tarbiyalashdagi asosiy vazifa nima deb biladi?
7. Farobiyning ta'lim-tarbiya berish usullari haqida so'zlang.
8. Farobi «Hikmat asoslari» (Fusus al-hakim) asarida insonni 5 sezgi a'zosi 5 turli vazifani bajarishi haqida yozadi. Ular qaysilar?
9. Farobi qachon va qaerda vafot etgan?
10. Bilimlarni o'rganish tartibi haqidagi fikr Farobiyning qaysi asarida o'z ifodasini topgan?
11. Farobi qaysi yillarda Halabda yashagan?
12. Farobiyning ta'lim-tarbiyaga oid ta'lomi asosida qanday g'oyalar yotadi?

«Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari axloq bilan yakunlanadi».

Abu Nasr Farobi



Mushohada qiling!

Farobiy ta’limoticha, insonning 5 sezgi a’zosi 5 turli vazifani bajarishga muvofiqlashgan bo‘lib, ular tashqi muhitdan olingai xabarlarni bir yagona markazga olib keladi va bu markazda barcha xabarlar — obrazlar umumlashadi.

Farobiy ta’rifi:

Ta’lim — insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya nazariy fazilatlarni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq me’yorlarini va amaliy malakalarini o‘rgatishdir.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. A.Zunnunov va boshqalar. O‘rta Osiyda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: Fan, 1996.
2. K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi (ma’ruzalar matni). 1-jild. — T., 2001.
3. X.Boboev va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. — T.: Yangi asr avlod, 2001.

4-mavzu: ABU ALI IBN SINO TA’LIM-TARBIYA HAQIDA

Reja:

1. Abu Ali ibn Sino O‘rta asrlar qomusiy olimi.
2. Abu Ali ibn Sino ta’limotida ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlari.
3. Ibn Sino jismoniy tarbiya va bola tarbiyasi haqida.
4. Ibn Sino pedagogik qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyati.

Buyuk shifokor olim Abu Ali ibn Sino fan va madaniyat taraqqiyotiga qo‘sghan ulug‘ hissasi uchun Sharqda «Shayx ur-rais» («Olimlar boshlig‘i»), Yevropada Avsena «Olimlar podshosi» degan yuksak unvonlarga sazovor bo‘lgan.


Ibn Sino 980-yilda Buxoro shahriga yaqin Afshona qishlog‘ida kichik amaldor oilasida tug‘ilgan.

IX asr oxiri — X asr boshlariga kelib, o‘lkada ijgimoiy-siyosiy vaziyat murakkablashadi, Qoraxoniylar Somoniylar davlatini bosib oladi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga Urganchga ko‘chib o‘tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayxon Beruniy boshqarayotgan «Ma’mun akademiyasi”da ilmiy ish bilan shug‘ullana boshlaydi.

Buni yodda saqlang!


Ibn Sino umrining so‘nggi yillarida Gurganjda, Rayda va Hamadonda yashaydi. U 1037-yilda Isfaxonda vafot etadi.

Ibn Sinoning odob-axloq va insonparvarlik, salomatlik haqidagi ta’limoti katta ilmiy-amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ta’limot, inson olam koinotning — toji, u buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir degan fikrga asoslanadi.



Bilib qo‘ying!

Ibn Sino «Hay ibn Yaqzon» («Uyg‘oq o‘g‘li tirik») falsafiy qissasida ilm aslo qarimaydi, u olamni kezadi, kishilarni jaholat va nodonlik g‘aflatidan uyg‘otadi, degan g‘oyani ilgari suradi.




Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy masalalar haqida olg'a surgan ilg'or g'oyalari:

Yaxshilik va yomonlik, adolat vaadolatsizlik, rohat va azob-uqubat, sahihlik va baxillik, kamtarlik va maqtanchoqlik, vafodorlik va bevafolik kabilardir.

Ibn Sino fanlarni tasnif etadi:

Birinchi guruh — etika, iqtisod, siyosat.

Ikkinchi guruh — fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlar.



Bilib oling!

Markaziy Osiyo ma'naviyatining ulkan arboblaridan biri hisoblangan Ibn Sinoning asli ismi sharifi Abu Ali al-Husayn Ibn Abdulloh ibn Sinodir.

Ibn Sino jahon madaniyati tarixida qomusiy bilimga ega bo'lgan yirik olim sifatida alohida o'rinn tutadi. U fanning turli sohalariga oid 450 dan ortiq asar yozgan. Ularda tibbiyot, musiqa, falsafa,

etika, ilohiyotshunoslik, ijtimoiyot, siyosat, tilshunoslik, estetika masalalari atroflicha ko'rib chiqilgan.

Mushohada uchun!


Alloma yaratgan «Kitob ash-Shifo» 18 jilddan iborat bo'lib, tibbiyot va falsafiy bilimlar qomusi hisoblanadi. U o'z ichiga 4ta katta bo'lim (mantiq, fizika, matematika, metafizika)ni oladi.

Ibn Sinoning «Kitob ul-insof»i («Adolat kitobi») 21 jilddan iborat.

Buni yodda saqlang!

Ibn Sino bolalarga mактабда bilim berish haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda soddadan murakkabga borish orqali bilim berish;
- mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib o'r ganishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning xohishi, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish¹.



¹ S. Rahimov. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya jaqida. — T.: O'qituvchi, 1967. — 74-75-betlar.

Bilasizmi?

Ibn Sino sakkizta doston yozgan. Bular: sog'liqni saqlash - gigiena haqida urjuza; Yilning to'rt fasli haqida urjuza; Anatomiya haqida urjuza; Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza; Tabobat haqida urjuza; Tibbiy nasihatlar haqida urjuza; Aloqa haqida urjuza.

Mavzuni mustaqil o'rghanish uchun savollar:


1. Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya haqidagi fikrlarini o'rghanib kelish.
2. Alloma qachon va qaerda tug'ilgan?
3. Ibn Sino fikriga ko'ra o'qituvchi qanday bo'lishi kerak?
4. Ibn Sinoning qaysi asarlarini bilasiz?
5. «Kitob ash-Shifo» kitobi necha jiddlik va uning necha jilda mantiqqa oid?
6. Ibn Sino fanlar tasnifi muammosini qay tarzda hal etgan?
7. Ibn Sinoning axloqiy xislatlarga bergan ta'rifini keltiring.
8. Olimning axloqqa bergan ta'rifini bilasizmi?
9. Ibn Sino do'stlilikni necha turga bo'ladi, ular qaysilar?
10. Ibn Sinoning jismoniylar tarbiya haqidagi fikrlari.
11. Ibn Sinoning umumbashariy qadriyatlarini tavsiflang?

Buni yod oling!

Axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xattiharakatiga doir me'yorlar va qoidalarni o'rGANADI.



Ibn Sino ta'limotiga ko'ra:



Olim do'stlikni 3 turga bo'ladi:

1. Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf-xatarda yolg'iz qoldirmaydigan do'stlik.
2. Manfaatlari o'xhash va g'oyaviy yaqin do'stlik.
3. O'z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik.

Ibn Sino hikmatlari

1. Aysh-ishrat va bekorchilikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi, aksincha, aqlning nimagadir intilishi sog'ligni muttasil mustahkamlab boradigan bardamlikni yuzaga chiqaradi.
2. Do'stimki dushmanimga do'stlik qilar ekan, uni men do'st hisoblamayman. Zaxarga qo'shilgan shakardan ehtiyyot bo'l, o'laksa ilon ustiga qo'ngan pashshadan o'zingni tort.
3. Abu Ali Ibn Sino o'zi davolayotgan kasallarga bunday der ekan:
 - Biz uch tarafmiz: men (tabib), sen (bemor) va u (kasallik). Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tarafga o'tib olsang, ikkovingni yengishim qiyin...
4. Go'sht tanani mustahkamlaydigan taom bo'lib, u boshqa ovqatlarga nisbatan qonni tezroq ko'paytiradi.
5. Erta saharda anor, tushda piyozli ovqat esang, yotish oldidan asal nush etsang, qoning ko'z yoshidek beg'ubor bo'ladi.
6. Har kishi anjir tanovul aylasa tun-kun mudom,
Ko'ksidan balg'amni haydar, bartaraf qilg'ay taom.

7. Sholg‘om urug‘ini tuyib, maydalab,
Asal bilan qo‘shib qilsang iste’mol.
Ichingni yumshatar, zaharni kesar,
Belingni baqquvvat qiladi darhol.
8. Surma qo‘ysa har kishi ko‘ziga laylu nahor,
Ko‘zidan suv oqmagay va nuri bo‘lg‘ay beg‘ubor.
9. Ketma-ket mast bo‘lish juda yomondirki, jigarni va mujozni
buzadi, asabni kuchsiz qiladi. Asab kasalliklarini, sakta kasalligini
va to‘satdan o‘lishni keltiradi.
10. Qora yer qa‘ridan to avji Zuhal,
Koinot mushkuli barin qildim hal.
Ko‘p mushkul tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.

Ibn Sino jismoniy tarbiya haqida

Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi.

U jismoniy mashqlar, ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya qilish inson sog‘lig‘ini saqlashda asosiy va muhim ekanligini ham amaliy jihatdan asosladi.

Buni yod oling!

O‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganligiga e’tibor berish;
- ta’limda turli usul va shakllardan foydalansh;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata olish, bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur¹.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. *Abu Ali Ibn Sino*. Tib qonunlari. — T.: Fan, 1953.
2. *A.Irisov*. Ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. — T.: Fan, 1980.
3. *S.Rahimov*. Ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida. — T.: O‘qituvchi, 1967.
4. *Q. Hoshimov, S. Ochil*. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. —T.: O‘qituvchi, 1995.
5. *Q.Hoshimov* va boshqalar. Pedagogika tarixi. Qo‘llanma. -T.: O‘qituvchi, 1996.
6. *B. Ziyomuhammedov* va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. -T.: 2000.
7. Tibbiyot xazinasidan To‘plovchilar: 3.Egamberdiev, 3.Egamberdieva. — T.: Ibn Sino nashriyoti, 1992.
8. *A.Zunnunov* va boshqalar. O‘rtta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: Fan, 1996.

5-mavzu: YUSUF XOS HOJIBNING HAYOTI VA IJTIMOIY FAOLIYATI. UNING «QUTADG‘U BILIG» YASARIDA TA’LIM VA AXLOQ MASALALARI

Reja:

1. Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati «Qutadg‘u bilig» asarining yaratilishi.
2. Asarning asosiy mazmuni.
3. Asarda ilgari surilgan aqliy, axloqiy tarbiya masalalari.
4. «Qutadg‘u bilig» asarining ilmiy, ta’limiy-axloqiy ahamiyati.

Yusuf Xos Hojib turk dunyosi milliy uyg‘onish davrining eng yirik mutafakkirlaridan biridir. Uning Sharq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy hamda badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo‘shtigan hissasi beqiyos. Alloma adibning pedagogik qarashlari xam bu sohadagi ulkan merosdir. Ular tarixiy ahamiyati bilangina emas,

¹ A. Irisov. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. — T.: Fan, 1980. — 160-bet.

bugungi kunitizga xizmat qilishi jihatidan ham zo'r ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojib XI asrda - qoraxoniylar davrida yashab ijod etgan. Adib haqidagi ma'lumotlar uning hozircha topilgan yagona asari «Kutadg'u-bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim»)da mavjud.


Asarda keltirilishicha, Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan joyi Ko'z urdu (hozirgi Bolasog'un) ekanji, turli o'lkalarga safar qilgani, umrining nihoyasida esa Qashqarga kelganligi aytildi. Demak, Yusuf Xos Hojib 1019 milodiy yillarda Bolasog'unda tug'ilgan.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarini 50 yoshlaridan yoza boshlagan. U 6500 bayt — 13000 misradai iborat.

Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, uni qoraxoniylar hukmdori Tavg'achxonga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, muallifga Xos Hojiblik (mukarram eshik og'aci) lavozimini beradi. «Qutadg'u bilig» asari katta shuhrat qozonadi.


Buni bilib qo'ying!

Yusuf Xos Hojib faylasuf va qomusiy olim sifatida o'z asarida quyidagi sohalarga oid fikrlarni bayon etadi:




Eslab qoling!

Qutadg'u bilig - baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi.



Buni bilasizmi?

«Qutadg'u bilig» qator o'zbek olimlari tomonidan tadqiq va tahlil qilingan.



Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari pedagogika tarixida ta'limiy-axloqiy usulda yozilgan barcha asarlar uchun tamal toshi hisoblanadi. Shoир X asrning o'rtalarida tashkil topgan qoraxoniylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan.

Qoraxoniylar dastlab Sirdaryodan Yettisuvgacha, Shimoliy Farg'on'a va butun Sharqiy Turkistonda hukmronligini o'rnatgan,

so'ng Mavarounnahrning ichki hududlariga kirib borib, Qoshg'ardan Kaspiygacha bo'lgan keng maydonda o'z davlatini barpo etgan edi.

Mazkur tarixiy davrda Qoraxoniylar davlatini har tomonlama mustahkamlash va boshqaruv siyosati hamda ta'lim-tarbiya usullarini yaxshilash uchun Nizom — qomus zarur edi.

Ana shu zarurat tufayli «Qutadg'u bilig» asari yaratildi. Bu asarda Qoraxoniylar davlatining idora usullarini yaratish, barcha tabaqa, toifalardagi kishilarning huquq va burchlari, jamiyatda tutgan o'rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, fuqarolarning madaniyati, ma'naviyatini kamolotga yetkazish masalalari o'z ifodasini topgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rnlarda turadi.

Asar pandnomaga uslubida bitilgan, unda aniq bir syujet yo'q. Asarning asosiy g'oyasi — to'rt qahramonning o'zaro bahsmunozaralari vositasida ochilib boradi. Qahramonlarning nomlari ham ramziy mohiyatga ega.



Buni yodlab oling!

Asardagi bosh maqsad va asosiy g'oyani Yusuf Xos Hojib Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish va O'zgurmish deb nomlanuvchi to'rt qahramonning suhbatlari, munosabatlari asosida ishonarli qilib bayon etadi.

Shoir yozadi:

Biri to'g'rilikka tayanch - ADOLAT,
Biri DAVLAT erur, u qutli g'oyat.
Uchinchi — Ulug'lik AQL ham ZAKO,
To'rtinchi — QANOAT erur bebah.


Yusuf Xos Hojibning pedagogik tarbiyaviy g'oyalari

1. Xudo kimga o'quv, aql-idrok, bilim bersa,
U ko'p ezguliklar qilishga qo'l uzatadi.
2. Zakovat qaerda bo'lsa, ulug'lik bo'lur.
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.
3. Zakovatli uqadi, bilimli biladi.
Bilimli, zakovatli tilakka etadi.
4. So'zingga ehtiyyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyyot bo'l, tishing sinmasin.
5. Fe'l-atvorni soz tut, unutma o'zing,
Ko'ngilni kichik tut, semirtma so'zing.
6. O'quvli tirikdir, o'quvsiz - o'lig,
Kelu, ey o'quvsiz, o'quv ol ulich.
7. Bilim bilan kishi judo hayvondin
Buyukroq nima bor, qani ayt ondin!?
8. Ezgulik etgil sen - olam qul bo'lur.
Olam ezgulikka to'la, mo'l bo'lur.
9. Agar ichsang, kayfni oshiradi may,
Ko'ngil sirin ochar u bitta qo'ymay.
10. Bilimli may ichsa bilimsiz bo'iar,
Bilimsiz-chi, ichsa yana past bo'lar.
11. Xat chiroqli bo'lsa ko'ngil ochilar,
O'qish mayli ortar, dillar ovunar.
12. Bitib qo'ymasaydi dono qalami,
Qorong'u qolardi moziy olami.
13. Mardning mardi shu bo'lur doimo
Olamni olsa ham kerilmas aslo.
14. Odamzot boyisa ortar havosi,
Kamtarlik bilandir dil muddaosi.
15. Otim bo'lsin desang el aro ezgu,
Yolg'onga yandashma, buning yo'li - shu.

1. Kishilikning, odamiylikning asosi - muruvvat chin inconiylik yo‘lidir.

2. Xizmatga loyiq taqdirlamoq lozim. Xodimdan shirin so‘zni ayamaslik manfaat va ezgulikka olib keladi.

Yusuf Xos Hojib talqiniga ko‘ra...



Kishi ezgulikka shirin jon berar.
Bir ezgu javobi o‘n bo‘lib borar.
Xizmatiga qarab xazinangni och,
Yupunlar kiyinsin, to‘yib olsin och.

Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlarida xalq bilan birga bo‘lish, adolat g‘oyasi asosiy o‘rinda turadi.

Shu sababli ham shoir o‘g‘liga qilgan nasihatida uni ezgulik kasb etishga da’vat etadi.


U deydi:

Ulug‘ xalq boshini ushlasang agar,
O‘zingga adolat yo‘lini o‘ngar.
Faqat ezgulik qil, yomondan yiroq,
So‘ngra kut kelajak, yomonlik yirar.

Ulug' mutafakkir insonlarni sabrli, bardoshli va yaxshilar bilan hamkor bo'lishga chorlaydi, chaqimchilik, hasadgo'ylikni qoralaydi.

Sabr qil, sabr — bu jasurlar ishi,
Sabrdan topar yo'l falakka kishi.
Chaqimchi kishini yaqin tutmagil,
U elga yoyadi butun bilganin.

Mushohada qiling, eslab qoling !





Buni yodda saqlang!

Olim inson bilimsiz, nodon, johil bo'lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha bilimli, dono, zukko bo'lsa ezgu ishlarni ro'yobga chiqarishini ta'riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishningga doir barcha masalalarini o'ziga qamragan yirik axloqiy-tarbiyaviy asardir.

Buni bilib qo'ying!



Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida insonning kamolotga etishishining yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib bergan. Bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.

Mustaqil tayyorlanish uchun nazorat savollari:

1. «Qutadg‘u bilig» qaysi asrda yaratilgan, unda qancha bayt va misralar bor?
2. «Qutadg‘u bilig»ning asosiy nuqtasi nima?
3. «O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lur, Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik olur» baytini izohlang.
4. Tilni avaylash haqida olimning talqini?
5. «Bilimsiz kishilar — donolarning dushmani» iborasini shartlang?
6. Yusuf Xos Hojibning turmush muammolariga oid fikrlarini keltiring.
7. Shoir yurtni idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo‘ladi, deb tushuntiradi. Bular kimlar?
8. Asarning tuzilishi va syujeti haqida tushuncha bering.
9. To‘rt qahramonning suhbatlari, munosabatlari asosida Yusuf Xos Hojib o‘z maqsad va g‘oyalarini bayon etadi. Bular kimlar?
10. Asarda yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari qanday yoritilgan?
11. Olimning amaldorlar axloqi haqidagi o‘gitlarini keltiring?
12. Jismoniy kamolot nima?
13. Aqliy kamolot nima?
14. Shoirning o‘g‘il va qizlar tarbiyasi haqidagi fikrlarini shartlang.
15. «Qutadg‘u bilig»ning lug‘aviy ma’nosи nima?
16. Yusuf Xos Hojib qachon va qaerda tug‘ilgan?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — T.: Yulduzcha, 1990.
2. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar / Tuzuvchilar: A.Zununnov va boshqalar. — T.: Fan, 1996.
3. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutbxonasi nashriyoti, 2005.
4. N.M.Mallaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. — T.: O‘qituvchi, 1965.

6-mavzu: KAYKOVUSNING «QOBUSNOMA» ASARIDA TA'LIMIY-AXLOQIY MUAMMOLAR

Reja:

1. «Qobusnomma» asarining yaratilishi va tuzilishi.
2. Asarda ilgari surilgan ta'lif-tarbiya va axloq masalalari.
3. «Qobusnomma» asarida barkamol inson tarbiyasida qo'llaniladigan metod va usullarning ifodalanishi.
4. «Qobusnomma» asarining pandhoma sifatida yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati.

«Qobusnomma» XI asrda yaratildi. By davrda feodal jamiyati ancha rivojlangan bo'lib, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiy etgan edi. Abu Abdullox Rudakiy, Abul Qosim Firdavsiy, Tusiy, Nosir Xisrov, Umar Xayyom kabi mashhur alloma — shoirlar shu asrning mazmun-mohiyatidan bahramand bo'lib, ilhom olganliklari manbalardan ma'lumdir.

G'arb va Sharq olimlari, pedagoglari diqqatinn o'ziga jalb etgan «Qobusnomma» asarining muallifi Unsurul — Maoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashovchi Gilon qabilasidandir. U 412 hijriy (1021—1022 milodiy) yilda feodal oilasida tug'ilgan.

Mazkur asar turli pedagog — olimlar diqqatini jalb etib, qator tillarga tarjima qilingan. Masalan, asar 1432 va 1705-yillarda usmonli turk tiliga, 1786—1787-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy taxallusi bilan uyg'ur tiliga, taxminan 1860-yilda Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga, 1880—1881-yillarda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga tarjima qilindi.


Bundan tashqari u 1886-yilda rus va fransuz tillariga, 1811-yilda nemis tiliga ham tarjima qilingan. Bugungi kunda ham ko'pgina jahon tillariga tarjima qilinib, sevib o'qilmoqda.

«Qobusnomma» asari shoh Qobus ibn Vushmagar Kaykovus o'g'li Gilonshohga tarbiya beruvchi bir nasihatnomma yoki vasiyatnomma yozib qoldirish istagi tufayli yaratiladi. U o'z asari «Qobusnomma»da o'g'li Gilonshohga murojaat qilib deydi: «Ey farzand,

umidim shuki, sen bu pandnomalarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman. Bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, har kim yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladi va bu topgan narsalarini o'zining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar.


Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen men uchun eng qimmatbahosan. Menga safar vaqtida yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo'lsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'ymagaysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan».

Anglab oling!




Buni yodda saqlang!

Kaykovusning «Qobusnama» asarida yoshlar tarbiyasi uchun zarur bo'gan — juvonmardlik talablari ilgari suriladi. Bulardan eng muhim Yuksak axloqiy tarbiyadir. U yoshlarda teran insoniy munosabatlarni shakllantirish,adolat,samimiylilik,saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni orzu qiladi va asarning boshidai oxirigacha ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishga intiladi.



Kaykovus odamlarni to'rt xilga bo'ladi:



Buni yodlab oling!

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan yuqori qo'yadi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lgandan, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdir, nedinkim aql bila mol jam etsa bo'lur, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilgil, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvda oqmas» - deb ta'riflar ekan, inson odobi ham aqlning belgisi, «al-adab - suratil aql» deya xulosa chiqaradi.

Yodda tuting!

Ahloqiylikning birinchi belgisi — suxandonlik

Kaykovusning ilmiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy hikmatlari:

1. Tan jon bilan, jon nafas bilan, nafas aql bilan tirikdir.
2. Odamning tani ko'zga ko'rindigan va ko'zga ko'rindigandan moddalardan tuzilgan.

3. «.. Dunyoda odamning bilmagan va tanimagan hech narsasi yo‘qdir».

4. Juvonmardlikning asosi uch narsadir: biri — aytgan so‘zni bajarish, ikkinchisi — to‘g‘rilikka xilof qilmaslik, uchinchisi — xayrni ko‘zda tutish.

5. Ey farzand, yolg‘on va behuda so‘zlamagilkim, behuda so‘z jinnilarning so‘zidir.

6. Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir.

7. «... aql ikki xildir: biri tug‘ma aqldirki, buni aziziy (tabiiy aql) derlar, ikkinchisi kasbiy aql, buni muktasib (halol mehnat bilan topilgan aql) derlar. Kasbiy aqlga donish ham derlar. Muktasibni o‘rganib bo‘ladi, ammo aziziy aql xudoning sovg‘a-sidir, uni ta’lim bilan o‘rganib bo‘lmash».

8. Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangosalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangosalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo‘ladi. Agar mehnat qilib badanni o‘zingga bo‘ysundurmasang, sog‘lom va baland martabali bo‘la olmaysan.

9. Agar kishi oliy mansab, baland martabali bo‘lsa-yu, hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo‘ladi. Ulug‘lik nasl-nasab bilan emas, aql va bilim bilandir. Ota-oni qo‘yan otiga mag‘rur bo‘lma, chunki bu ot faqat tashqi ko‘rinishdan boshqa narsa emas, ammo hunar bilan bir nomga ega bo‘lgil.

10. Sho‘r erga urug‘ sochma — hosil bermaydi, mehnating bekor ketadi, ya‘ni yaxshilikni bilmagan kishiga yaxshilik qilish sho‘r erga urug‘ sochish bilan baravardir.

11. Anushervon dedi: «O‘zini dono sanagan nodondan parhez qil».

12. Yana dedi: «Agar g‘amsiz bo‘lmoq tilasang, hasadlik bo‘lmagil».

Xulosa

Kaykovusning «Qobusnom» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik ta’llimiyl asardir. Unda o‘sha davrda har bir yosh egallashi

zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘lik faoliyat turlari; otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san’ati, she’r yozish, musiqiy bilimga ega bo‘lish, ifodali o‘qish, hattotlik san’ati, shatranj va nard o‘yinini bilish kabilalar ham o‘z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlash uchun ularni har tomonlama kamolga yetkazishga doir nazariy masalalarni amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashga katta e’tibor beradi. Shuning uchun ham bu asar hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o‘z qimmatini yo‘qotmasdan va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelmoqda.

Mavzu bo‘yicha mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Unsurul - Maoliy Kaykovus kim bo‘lgan va u qachon tug‘ilgan?
2. «Qobusnom» asarining yozilishiga asosiy sabab nima? U kimga atab yozilgan?
3. «Qobusnom»ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan shoirning ismi?
4. «Qobusnom» necha bobdan iborat?
5. Asarda qanday ta’limiy-axloqiy masalalar ilgari surilgan?
6. Ota-onani hurmat qilish «Qobusnom»ning qaysi bobida o‘z ifodasini topgan?
7. Kaykovusning bilimni egallahsga oid tavsiyasini keltiring.
8. Juvonmardlik nima?
9. Kaykovusning «Xos (yuqori tabaqa)ning farzandlariga odob va hunardan yaxshiroq meros yo‘qdir va xaloyiqning farzandlariga kasb va hunardan yaxshiroq meros yo‘qdir» degan fikrini tushuntiring.
10. Kaykovus odamlarni necha toifaga bo‘ladi?
11. Kaykovusning inson shaxsini tarbiyalashga doir fikrini keltiring.
12. Kaykovus talqinida axloqlikning birinchi belgisi nima?

Bilasizmi?

1. Kaykovusning fikricha, tarbiyadan maqsad insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxs qilib yetishtirishdir.

2. Kaykovus bir kecha-kunduzni shunday taqsimlaydi: «Sakkiz soati ibodatga, sakkiz soati ishratga va ruhni toza qilmoqqa va sakkiz soati mana shu o'n olti soat davomida qiyngan a'zolarga orom bermoqqa tayin etmoq kerakdur, toki a'zo harakat takallufidan osuda bo'lsin».

Vazifa: Quyidagi hikoyatlarni sharhlang:

Birinchi hikoyat. Shunday eshitganmanki, yuz yoshga kirgan va qaddi yoydek bukilgan bir qari kishi qo'liga hassa ushlab borar edi. Bir yigit uni masxara qilib deydi: «Ey shayx, ushbu yoyni qanchaga sotib olding, ayt men ham sotib olay». Shayx: «Agar uzoq yashasang, sabr qilsang, bu yoyni senga tekinga beradilar», deb javob beribdi.

Ikkinci hikoyat. Men shunday eshitganmanki, bir kishi kechasi sahar vaqtida qorong'ida uydan chiqib ketdi va hammomga bormoqchi bo'ldi. O'z do'stlaridan biriga: «Men bilan hamroh bo'lib hammomga borgil!» — dedi. U dedi: «Sen bilan birga boramanu, ammo hammomga tushmayman, chunki mening bir zarur ishim bor».

U kishi hamrohi bilan hammom tomon qarab ketdi. Ikki yo'l kelgan joyga borib, hammomga boruvchi do'stiga bildirmasdan boshqa yo'lga kirdi. Hamrohi o'zi yolg'iz hammomga ketaverdi va do'stim bilan kelayotirman deb o'ylab boraverdi. Ittifoqo bir o'g'ri u kishining izidai ketaverdi, u kishi buni do'stim deb fahmladi va uning qo'ynida yuz tillasi bor edi. Hammomni eshigida tillani qo'ynidan chiqarib kecha qorong'isida tanimay haligi o'g'riga berdi va dedi; «Ey birodar, men hammomga kirib chiqquncha bu tilla senda tursin, hammomdan chiqqanimdan keyin menga topshirasan». O'g'ri tillani olib, o'sha joyda o'tirdi. U kishi hammomdan chiqib, kiyimlarini kiyib ketaverdi. O'g'ri uni orqasidan chaqirib dedi: «Ey juvomnard, kel mendan oltinlaringni ol. Bugun men sening omonatingni saqlab o'z ishimdan qoldim». U kishi dedi: «Sen kimsan, bu oltin qanday oltin?»

O'g'ri dedi: «Men bir o'g'riman, bu oltin sening menga topshirgan oltiningdir».

U kishi dedi: «Agar sen o‘g‘ri bo‘lsang, nima uchun bu oltinlarni olib ketmading?»

O‘g‘ri dedi: «Agar ming tilla bo‘lsa ham, sendan andisha qilmay olib ketardim, lekin sen bu oltinni menga omonat topshirding. Omonatta xiyonat qilmoq juvonmardlikdan emas».

Anushirvonning pand-nasihatlaridan namunalar:

- Achchiq bo‘lsa ham, to‘g‘ri (haq) so‘zni aytgil;
- Siringni dushman bilmisin desang, do‘stingga aytmagil;
- Har kishining bilimi bo‘lsa-yu, unga loyiq aqli bo‘lmasa, u bilim (o‘sha kishiga) zarar keltiradi;
- Sening to‘g‘ringda xalq yaxshi gap gapirishini hohlasang, sen o‘zing xalq to‘g‘risida yaxshi gapir;
- Agar kam yor va kam do‘sit bo‘lishni istamasang, ginalik bo‘limgil;
- Agar g‘amsiz bo‘lmoq tilasang, hasadlik bo‘limgil;
- Agar azob-uqubatdan uzoq bo‘lishni istasang, bitmaydigan ishga qo‘l urma;
- Agar sharmisor bo‘lmayin desang, qilmagan ishni qildim dema;
- Agap pardam yirtilmasin desang, kishining pardasini yirtmagil;
- Juvonmardlik qilishni istasang, vafoli bo‘l;
- Agap tiling uzun bo‘lishini tilasang, qo‘lingni qisqa qil.

Tavsiya etiladigan manbalar:

1. *Q.Hoshimov* va boshqalar. Pedagogika tarixi (ma’ruzalar matni). — T., 2001.
2. *Kaykovus.* Qobusnama. — T.: O‘qituvchi, 1973.
3. *Z. Asgarov* va boshqalar. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: Fan, 1996.

7-mavzu: AHMAD YUGNAKIYNING AXLOQIY QARASHLARI

Reja:

1. Ahmad Yugnakiyning hayoti va faoliyati.
2. «Hibat ul-haqoyiq» asarida komil insonga xos xislatlarning ifodalanishi.
3. Asarning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Ta’lim-tarbiya va axloq masalalari.
4. «Hibat ul-haqoyiq» asarining pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o’rni.

O‘z zamonasining bilimdoni, donishmand, murabbiy, iste’dodli shoir Ahmad Yugnakiy XII asr oxiri XIII asr boshlarida yashab ijod etadi. Alisher Navoiy «Nasoyim-ul-muhabbat» asarida shoir Ahmad tavallud topgan shahar Yugnak, otasi Mahmud ekanligini qayd etadi. Ahmad Yugnakiyning ko‘zi ojiz bo‘lsa-da, ilmiy salohiyatda axloq muallimi darajasiga ko‘tarilgan edi. Undan bizgacha yetib kelgan yaxlit yagona asar «Hibat-ul-haqoyiq» (manbalarda «Haqiqatlar tuhfasi», «Haqiqatlar arg‘umoni», «Haqiqatlar kaliti» deb yuritiladi) dostoni bo‘lib, 484 misradan iborat. Bu asarning bugungacha uchta to‘liq qo‘lyozmasi saqlanib qolgan.

Anglab oling!



Buni yodda saqlang!

Ahmad Yugnakiyning nomiga «Adib» so‘zi qo‘sib aytilishi ma'lum sababga ega. U o‘zini shoir emas, balki odob ilmi namoyandasи deb biladi. Uning dostoni ham turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma’naviy axloq, kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo‘ljallangan. Buni bob sarlavhalaridan ham anglash mumkin. Jumladan, asarning bir bobи «Ilm ma’rifati va jaholatning zarari haqida» deb ataladi. «Saodat yo‘li bilim bilan bilinadi, bilim egasi bo‘igan ayol kishini erlar qatorida ko‘radi, bilimsiz erkakni esa ayoldan ham zaif biladi».

Buni yodlab oling!

Dostonning uch qo‘lyozma nusxasi Turkiyada saqlanadi. Dostonning Istanbul nusxasi 508 misra, XI bobdan iborat.

Birinchi bobи:	Yagona Olloh Taologa;
Ikkinci bobи:	Payg‘ambar Rasulloh (SAV)ga;
Uchinchi bobи:	Beklarga amiri - ulamolarga;
To‘rtinchi bobи:	Asarning yozilishi sabablariga;
Beshinchi bobи:	Ilmning afzallik tomonlari va uni madh etishga;
Oltinchi bobи:	Til odobiga;
Ettinchi bobи:	Foniy dunyo masalalariga;
Sakkizinchi bobи:	Saxovat hamda baxillik sifatlariga;
To‘qqizinchi bobи:	Zakovat, aql idrokka e’tibor qaratadi.
O’ninchи bobи:	Ijtimoiy masalalarga doir hayotiy saboqlar beriladi;
O’n birinchi bobи:	Kitob xotimasiga bag‘ishlanadi.

Yodda tuting!

Ahmad Yugnakiyni hurmat
bilan shunday atashgan

«Adiblar adibi»

«Fozillar sardori»

A. Isroilov «Ahmad Yughnakiy o‘z davrida zabardast ilm nurini tarqatuvchi mudarris bo‘lgan. Uning tilga tushgan kitobi ta’limiy - tarbiyaviy asar bo‘lib, uni «Nasihatnama» desa ham bo‘ladi».

Ahmad Yughnakiyning ma’naviy-axloqiy hikmatlari:

1. Har bir kishi chin inson, pok musulmon bo‘lishi, haq yo‘lga kirishi, yomon, yaramas, achchiq, yolg‘on so‘zlardan saqlanishi uchun tilini tiyishi kerak.
2. Ilmli kishi kerakli so‘zni gapiradi, keraksiz so‘zni yashirib qo‘yadi. Ilmsiz nodon tushunmasdan og‘ziga kelgan gapni so‘zlay beradi, bunday nodonning tili o‘z boshini eydi.
3. Sahovatlilik (ahiylik) eng yaxshi insoniy fazilatdir.
4. Boylik orttirishga ortiqcha berilmasdan, emoq - ichmoqqa, kiyinishga etarli bo‘lgan boylikka qanoat qil.
5. Saxiylik insonga yetuklik, kamolot, ulug‘ martaba va go‘zallik baxsh etadi.
6. Sen odamlar orasida obro‘-e’tibor orttirishni, sevilishni istasang, saxiylik qil, saxiylik seni sevikli qiladi.
7. Orttirgan mol - dunyoni saxovat yo‘liga sarf et!
8. Takabburlikni boshdan oshirib tashla, tavoze qilishni yashirin tut, tavoze qilish uchun tezlikda harakat qil.
9. Mehribbonlik, shafqat, rahmdillilik Ollohg‘a xos fazilat bo‘lib, barcha insonlarni ana shu xislat tark etmasin.
10. Sir saqlashni o‘rgan. Sening o‘zingda siring yashirinib turmasa, siringni oshkor etuvchi do‘stingdan saqlan.

Xulosa

Ma’lumki, insoniyatning ma’naviy-madaniy hayotida yoshlar-da ezgulik tuyg‘usini, komillikka xos xislatlarni tarbiyalash masalasi muhim o‘rinda turadi. Ahmad Yughnakiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari XII-XIII asrdayoq turkiy xalqlarning e’tiboriga tushgan, didaktik xususiyat kasb etgan yirik ta’limiy asardir. Bu asarda har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan ilm ma’rifat, til — odobi, axloq-odob kabi hayotiy masalalari ifodalanadi. Ahmad Yughnakiy o‘z davrining donishmandi, ma’naviyat olimi sifatida shuhrat

qozongan. Bugungi yoshlarga «Hibat-ul-haqoyiq» asaridagi g‘oyalar qimmatli ma’naviy ozuqa bo‘lib hisoblanadi.

Mavzu bo‘yicha mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Ahmad Yugnakiya «adib» unvoni nima uchun berilganini izohlang?
2. «Hibat - ul -haqoyiq» asarining yozilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Asarda qanday ma’naviy — axloqiy masalalar ilgari surilgan?
4. Yugnakiy talqinida saxovatli inson qanday bo‘lishi kerak?
5. Adibning sir saqlash haqidagi fikrini sharhlang.

Tavsiya etiladigan manbalar:

1. A.Zunnunov va boshqalar. O‘rtta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti-dan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.
2. Ma’naviyat yulduzлari. M.Xayrullaev tahriri ostida. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
3. K. Hoshimov, S. Ochil. O‘zbek pedagogikasi analogiyasi. — T.: «O‘qituvchi», 1995.
4. K. Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi. — T.: Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005.

8-mavzu: TEMURIYLAR DAVRIDA TA’LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI (AMIR TEMUR, ULUG‘BEK, ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURLARNING TA’LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI)

Reja:

1. XIV-XVI asrlarda fan, madaniyat, ma’rifat, maorif taraqqiyoti.
2. Amir Temur va uning yetuk inson tarbiyasiga oid qarashlari.
3. Ulug‘bekning fan, madaniyat, ma’rifat taraqqiyotidagi xizmati, ilmiy merosi.
4. Temuriylar sulolasining ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o‘rni.
5. Zahiriddin Muhammad Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari.
6. «Boburnoma» asarining ta’limiy — tarbiyaviy ahamiyati.

Yodlab oling!

Bizkim — mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Bizkim — millat-larning eng qadimi va eng ulug'i — Turkning bosh bo'g'inimiz.

Amir Temur

Ma'rifatli Movarounnahr ruhi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termizning noyob tarixiy yodgorliklari, buyuk Ipak yuli, Sharq mutafakkirlari yaratgan bebahta'lilotlar, Amir Temur va Temuriylar davrida gullab-yashnagan ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, musiqa, rivojlangan savdo-iqtisodiy munosabatlar, barpo etilgan mustahkam qudratli davlat, uning ichki va tashqi siyosati Yevropadagi Uyg'onish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etgani tarixiy haqiqatdir.

Ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va boshqa sohalarda o'sha kezlarda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar o'z ulug'verligi, nafisligi, umum-bashariy g'oyalarga boyligi, badiiy shakllarining xilmalligi, ma'naviy sofligi va etukligi bilan inson aql-idroki va tafakkurini yuksaklikka ko'tardi, umuminsoniyat qalbiga yetib bordi, G'arbni Sharq bilan yaqinlashtirdi.


Shu jihatlarni ko'zda tutib, tadqiqotchilar bu davrlarni diyormizning oltin asri, ikkinchi Renesans — Sharq Uyg'onish davri deb nomlaydilar. «Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan sharq Uyg'onish davri edi»¹.

XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo'lgan Uyg'onish davri - madaniy yuksalish birinchi navbatda Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzziy bog'liq bo'lsa, ikkinchidan bu sohada farzandlari, avlodlari ham katta o'rin tutganlar.


Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay 1336 yilning 9 apreliida o'sha paytda Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xo'jailg'or qishlog'ida tavallud topgan.

¹ I. A. Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. — T.: O'zbekiston, 1996. — 333-bet.

Sohibqiron bobomiz jahonda qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan, bepoyon mamlakatni ijtimoiyadolat va qonunchilik asosida boshqarishni yo'lgan qo'ygan buyuk davlat arbobi sifatida ham tarixda ulug'lanadigan mo'tabar zotdir. Shaxsan uning o'zi odob-ahloq, iymon-e'tiqod, madaniyat, ma'rifat, ma'naviyat, ijtimoiyadolat bobida yuksaklikka, mukamallikka erishgan siymodir. Uning davlati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi.



Eslab qoling!



Temur bilim olishni yetti yoshidan boshlagan. 9 yoshidan namoz o'qisgan. 12 yoshida madrasadagi barcha o'quvchilardan ustun bo'lgan.

Eslab qoling!

Ta'lif-tarbiya va ilm-fanga buyuk hissa qo'shgan Amiring farzandlari, nabiralari, avlodlari: Jahongir Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Xusayn Bayqaro, Xumoyun Mirzo, Komron Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegim va boshqalardir.



Buni yodlab oling!

Bir so'z bilan aytganda XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo'lgan davr Mavarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy yuksalish davri bo'ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o'z imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuksaklikka ko'tardi. Uni Ovrupa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

Buni yodda saqlang!



Buni bilib qo'ying!

Buyuk sultanat sohibi Amir Temur «Kuch — adolatdadir» degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan. Bu qudratli so'zlar Amir Temur tamg'asiga naqsh etilgan.

Amir Temur o'gitlari va vasiyatlarini o'rganaylik!

- O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va «Tuzuklar»imni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting.
- Millatning dardlariga darmon bo'lmoq qutlug' vazifangiz. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik — dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin».
- Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim.

- Adovat emas, adolat yengadi, Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi.
- Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o‘xshaydi, Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.
- Har neki degan bo‘lsam unga amal qildim.
- Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqrok bo‘lishga intildim.
- Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorlarga ham, begunohra ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Hayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim.
- Menga yomonlik qilib boshim uzra shamshir ko‘tarib ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim».
- Do‘sstu dushman bilan murosayu madoro qildim.


Bilib qo‘ying!

Mirzo Ulug‘bek Mavarounnahrda, butun O‘rta Osiyoda madaniy rivojlanish, dunyoviy ilmlarga qiziqish kuchaygan davrda yashagan, ijod etgan. O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan ulug‘ siymolardandir.

Ulug‘bek 1394-yil 22 martda tug‘iladi. Otasi Shohruh Amir Temurning o‘g‘li bo‘lib, Xuroson hukmdori, ma’rifatli, ilm-fanga qiziqqan shoh edi.


Ma’rifatparvar ota-onasi o‘z farzandlari Ulug‘ekning tarbiyasiga alohida e’tibor berib, jismonan sog‘lom, aql-zakovat, axloq-odob va ilmda barkamol bo‘lib etishuviga harakat qildilar. Ulug‘bekni o‘z davrining bilimdoni va tajribali murabbiylari tarbiyalab savodini chiqardilar, uni diniy va dunyoviy ilmlarning asosi bilan tanishtirdilar. Ulug‘bek arab va fors tillarini mukammal o‘rgandi, ko‘p vaqtini kutubxonada mutoala qilish bilan o‘tkazdi.

Eslab qoling!



Ulug'bek 17 yoshida Mavarounnahr hukmroni bo'ladi.
Uning tashabbusi bilan o'lkada ilm, fan, adabiyot, san'at, madaniy, ma'rifat, me'morchilik gullab yashnaydi.

Anglab oling!



Yodda saqlang!

Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obirahmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Abduali Birjandiy, Mansur Koshiy, Maryam Chalabiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan Rasadxonasida sayyoralar sirini o'rgandi. Natijada Ulug'bek 1018 ta yulduzning holati va harakatini aniqladi, astronomiyaga doir bir necha asarlar yozdi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji jadidi Ko'ragoniy» deb ataluvchi astronomiya jadvali tashkil etadi.



Bilib qo'ying!

Ulug'bekning astronomiya maktabi o'z davrining akademiyasi («Dorul-ilm»i) bo'lgan va O'rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojiga katta ta'sir qilgan. Yevropa olimlari uni buyuk astronomlar qatorida e'zozlaganlar. Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Vol'ter (1694-1778) shunday e'tirof etgan edi. «Ulug'bek Samarcandda akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o'lchashni buyurdi va astronomik jadvallarni tuzishda ishtirok etdi».

Buni bilib qo'ying!

Ulug'bekning eng katta xizmati shundaki, u bevosita ilmiy-pedagogik qarashlari bilan ham odamlarni ilmlи va ma'rifatli bo'lishga da'vat etdi. Ulug'bek o'zining falsafa tarixi, falakiyot, matematika, geografiya, adabiyot fanlariga oid ko'p jildli asarlarida o'z davri uchun muhim bo'lgan ilg'or pedagogik fikrlarni ilgari surdi.

Ulug'bek yoshlarni aqliy va ma'rifiy tarbiyasi haqida gapirib, ularni dunyoviy bilimlarni egallahga da'vat etdi, ilmsizlikka qarshi kurashdi.

Mirzo Ulug'bekning ilmparvarligi va ma'rifatparvarlik fazilatlari hamda odil podsho ekanligi haqida Alisher Navoiy «Xamsa» asarida shunday yozadi:

«Temurxon naslidan Sulton Ulug‘bek,
 Ki olam ko‘rmadi Sulton aningdek.
 Aning abnoi jinsi bo‘ldi barbod,
 Ki davr ahli biridin aylamas yod.
 Valek ul ilmi sari topdi chun dast,
 Ko‘zi oldida bo‘ldi osmon past.
 Rasadkim bog‘lanmish zebi jahondur,
 Jahon ichra Yana bir osmondur.
 Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
 Ki ondin yozdi «Ziji Ko‘ragoniy».



Buni yodda saqlang!

Ulug‘bek 1449 yil 27 oktyabrda 56 yoshida yovuzlarcha o‘ldiriladi. Ulug‘bekning do‘siti va sadoqatli shogirdi Ali Qushchi unga ishonib topshirgan «Ziji Ko‘ragoniy» nusxasini Istambulga olib ketadi va chop ettiradi.

Ulug‘bekning pedagogik qarashlari

1. Yosh avlodning erkin va har tomonlama kamol topish huquqini himoya qiladi.
2. Yoshlar o‘rgangan bilimlarini hayotga tatbiq etish yo‘llarini bilishlari, kerakli kasb-hunarlarni o‘rganishlari lozim deb biladi.

3. Axloq tarbiyasi masalasiga e'tibor berib, insonlar orasidagi munosabat, do'stlik, birodarlikka alohida e'tibor qaratishni ta'kidlaydi.

4. Mehnat tarbiyasi va insonlarni hayotda, o'qishda chidamli bo'lishini mehnatsevarlik va matonat timsoli deb ko'rsatadi.

5. Bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida e'tibor beradi.

6. Madrasalardagi o'quv tizimini isloh qilib, madrasalarda o'qish muddatini 15-20-yildan 8-yilgacha qisqartiradi.


Bilib qo'ying!

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati va ma'naviyatida o'ziga xos o'ren egallagan olim bo'lishi bilan birga keng dunyoqarash va mukammal aql - zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonni mashhur tarixnavis, adabiyotshunos, tarbiyashunos olimlari qatoridan ham joy oldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg'ona hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Ilmga yoshligidan mehr qo'yan Zahiriddin barcha Temuriy shahzodalar kabi bilimlar asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o'rniga Farg'ona viloyati hokimi etib ko'tarilgan Bobur butun aqliy qobiliyati, irodasini qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa qarindosh raqiblariga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga Farg'ona viloyatini ikkiga taqsimplab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun

olib borilayotgan kurashga otlandi. Bir necha yil davom etgan bu kurashda Shayboniyxonning qo‘li baland kelib Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘idi. 1504 yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Qobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Keyinchalik 1526-1527 yillarda Bobur Hindistonga yurish qiladi va Ibrohim Lo‘diy ustidan g‘alaba qozonib, Hindisonda «Boburiylar sulolasasi»ga asos soladi. Bobur bu g‘alabadan so‘ng uzoq yashamadi. 1530-yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi. Keyinroq vasiyatiga ko‘ra farzandlari uning hokini Qobulga olib kelib dafn etdilar.



Bilasizmi!

«Boburiylar sulolasasi» Hindistonda 300-yildan ortiq hukmronlik qildi.

Kim ko‘ribdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.
Bu zamonni nafi qilsam, ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig‘.

Boburning «Mufassal» asari bo‘lganligi ma’lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Buni yodda tuting!

Bobur Hindistonga me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubini olib kirdigan, ya'ni ma'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirgan.

Bobur va uning hukmdor avlodlari saroyida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, musiqashunos va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma'naviy ruhiy muhitni vujudga keltirdilar.

«Bobur Hindistonga kelgandan keyin davlat ijtimoiy hayotida katta siljish yuz berdi va yangi hayotni boshlab bergan san'atga, ilm-ma'rifikatga, arxitekturaga toza havo baxsh etgan, madaniyat va ma'naviyatni barcha sohalarini bir-biriga tutashtirib bergan buyuk shaxsdir», — deydi taniqli davlat arbobi Javaharlal Neru.

Boburning ilmiy ma'naviy, tarixiy, adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda XIX-XX asrda Georg Kerr, N. Il'minskiy, O. Senkovskiy, M. Sal'e, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, V. Zohidov, Ya. G'ulomov, R. Nabiev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa'y-harakatlari katta bo'ldi.

Buni bilasizmi!

«Boburnoma» tarixiy, adabiy, ilmiy, ta'limiylahloqiy meros sifatida dunyo olimlarini hozirgacha hayratda qoldirib kelmoqda.

«Boburnoma» Markaziy Osiyo va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy savdo munosabatlari, jug'rofisiyasi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalq-qabila va elatlari, ularning yashash sharoitlari urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari, hindlar va muslimonlarning ibodatxonalarini, to'y va dafn marosimlari, yashash sharoitlari, xalqlarning madaniy hayotlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan buyuk shoh asardir.

Buni bilib qo‘ying!

Movarunnaharni birlashtirishga urinishlari natija bermagach Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsizlikka tushgan kezlaridagi kayfiyati she’rlarida aks etgan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Qobul, Hindistonga yuz tutganda Bobur ijodida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, yurtga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerin qo‘yib Hind sari yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bobur o‘zining ma’lum va mashhur asarlari bilan xalq orasiga ma’rifat yoyishga, ilm va jamoat ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga intildi. U tarix, adabiyot, ijtimoiy masalalar echimiga o‘z hissasini qo‘sghan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egalladi.

Mavzu bo‘yicha mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Amir Temur Ko‘ragoni kim bo‘lgan?
2. XIV-XVI asr mobaynida Movarounnahrda bo‘lgan o‘zgarishlar tarixiga bir nazar.
3. Sharq Uyg‘onish davri va Temuriylar davlatning o‘zaro bog‘liqligi tahlili.
4. Temur «Tuzuklar»i, «Temur vasiyatları» va «Temur o‘gitlari”dan parchalar keltiring.
5. Amir Temuring bosh shiori va davlatchilik g‘oyasining asosini izohlang.
6. Ulug‘bek - shoh, munajjim, fan arbobi.
7. Ulug‘bek rasadxonasi va u yaratgan asarlarning mohiyati.
8. Ulug‘bek zamonasida ilm-fan, maorif va madaniyatning rivojlanishi.
9. Ulug‘bekning pedagogik fikr va g‘oyalari.
10. Ulug‘bekning pedagogik qarashlari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omil bo‘lgan allommalar.
11. Ulug‘bekning o‘ldirilish fojiasi.
12. Ali Qushchi va «Ziji ko‘ragoniy» taqdiri.


13. Amir Temur haqida yozilgan asarlar.
14. Ulug‘bekning matematika va falakiyotga oid ta’limotlari keng tarqalgan mamlakatlar.
15. Temuriylar sulolasi: Bobur, Xusayn Bayqarolarning ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o‘rni.
16. Ulug‘bekning umumbashariy qadriyatlarni yuksalishiga qo’shgan hissasi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov

«... Mirzo Ulug‘bekning umumbashariy qadriyatlarga qo’shgan hissasi beqiyos bo‘lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini oshirish yo‘lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodimiz Ulug‘bek nomi berilgan ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko‘chalar va shaharlar juda ko‘p. Yurtimizda dunyoga kelib ko‘z ochayotgan har o’n chaqaloqning biriga ezgu niyat Ulug‘bekning muborak ismi berilyapti, deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bularning barchasi — millatimizning buyuk allomaga bo‘lgan cheksiz, hurmati va ehtiromlaridan darak beradi»¹.

Etibor qiling!



Mustaqil topshiriq

1. Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» qissasini o‘qib, Bobur haqidagi fikrlarni izohlab bering. Kospektlashtiring.
2. «Boburnoma» qanday asar ekanligini sharhlab bering.

¹ I. Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. — T.: O‘zbekiston, 1994. — 96-97-betlar.

3. «Saodat sohili» qissasida Bobur bilan suhbatlashgan Toshkentlik olim haqidagi fikringizni! izohlab bering.

Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Amir Temur o'gitlari. — T.: Navro'z, 1992.
2. H.Boboev, Z. G'ofurov, Z.Islomov. Milliy istiqlol maskurasi va taraqqiyot. — T.: Yangi asr avlod, 2001.
3. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. — T.: «Cho'lpon», 1998.
4. Amir Temur vasiyati. — T.: «G'.G'ulom», 1991.
5. A.Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.
6. Temurnoma. — T.: «Cho'lpon», 1990.
7. Pedagogika tarixi / Tuzuvchilar K.Hoshimov va boshq. Ma'ruzalar matni. 2-jild. — T., 2001.

9-mavzu: ALISHER NAVOIY TA'LIM-TARBIYA TO'G'RISIDA

Reja:


1. Alisher Navoiyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati.
2. «Xamsa» dostonlarida ilgari surilgan ta'limiylar axloqiy qarashlar.
3. «Mahbub ul-qulub»da inson kamolotiga xos xislatlarning yoritilishi.
4. Alisher Navoiy ma'rifiy qarashlarining ta'lilm-tarbiya tarixida tutgan o'rni.

Qomusiy bilimlar sohibi buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar Alisher Navoiy (1441-1501) XV asrda - temuriylar davrida yashab ijod etgan allomadir.


Mashhur tarixchi Xondamir Navoiyning yoshlarga bilim berish va ularni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar tug'dirganini bunday tasvirlaydi: «..Atoqli olimlar va hurmatga loyiq bo'lgan san'at ahllarining darajalarini ko'tarishda qo'ldan kelgan qadar harakat qilib, bunday ishlarga ahamiyat berdi. O'quvchilar faqat

o'qish bilan mashg'ul bo'lishlari uchun ularga nafaqa tayin etib, madrasalar bino qildi»¹.

Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunar egallashini va eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega kishilar bo'lishini orzu qiladi. Uning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rinda turadi. Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir.



Eslab qoling!



Buni yodda saqlang!

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch-qudratiga alohida e'tibor beradi. Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqluzakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yorituvchi chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyo fasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi.

¹ *Xondamir*. Makorin ul axloq. — T.: Fan, 1941. — 23-bet.

Buni yod oling!

Tufuliyat o'tgach ki bo'ldi shabob,
Xirad nuri soldi dumog' ichra tob.
Kishining bu vaqt ikkidur holati.
Erur aqli yo nafsining quvvati.
Agar aqliga quvvat o'ldi fuzun
Bulur yaxshi ishlar sori rahnamun.

«Xamsa»dan olingen mazkur parchada Navoiy bolaga yoshligidan tarbiya bermasa, yigitlik davrida yomon yo'lga tushib ketishi mumkinligini, juda yoshlikdan berilgan tarbiya esa, insonni yaxshi xulq va fazilatlar sari yetaklshini ta'kidlaydi.

Sizga ibrat!

Navoiy tarbiya ta'siriga berilmaydigan, xalqqa musibat keltiruvchi fosiqlarga shafqatsiz bo'lish kerak va ularni tarbiyalash bilan inson qatoriga qo'shib bo'lmaydi deb uqtiradi.

Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsin debon,
Chekma mehnat kim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat.
It bo'lur, dog'i eshshak, bo'lmaslar aslo odami.

Demak, nokas, vijdonsiz va fosiqlarga haqiqiy kishilik xislatlarini singdirib bo'lmaydi.

Navoiy hayotda ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Maxbul ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, urug' sochib hosildan bahra olmagan dehqonga o'xshaydi deb ta'kidlaydi.

Ilm o'qib qilmag'on amal maqbul,
Dona sochib ko'tarmadi maqsul.



Navoiy nazdida:

— Inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar ziynatdir.

— Barcha insoniy xislatlar odobdan boshlanadi.

— Qanoat insoniy belgisi. U insonni yomon kunlardan asraydi.

Sabr achchiqdir — ammo foyda beruvchi, qattiqdir — ammo zararni daf etuvchi, sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham, ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi («Xamsa»dan):

Odami ersang demagil odami.

Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil, hasadchi odamlar to‘g‘risida Navoiy yozadi:

Ulki xayoli bori fosid durur,
Barcha salox ahliga hosid durur.

Buni yodda saqlang!

Kishilarning pok qalbli, rostgo‘y, adolatli bo‘lishi Navoiyning buyuk armonidir. Navoiyning ta‘kidlashicha, to‘g‘ri va chin so‘zlagan kishilar mo‘tabar, pok ko‘ngilli, xalq nazdida ishonchli va obro‘li bo‘ladilar. Haqiqiy inson to‘g‘ri so‘zlashi va to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

«Mahbub ul-qulub»da talqin qilinadi:

«Karam — bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchilikdan qutqarmoqdir».

«Ehson degan sifatni abadiy saodat bil... Kishilik bog‘ining ko‘ngilga yoqar daraxti ehsondir».

«Saxiylik kishilik bog‘ining xosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqinli daryoning asl gavharidir».

«Saxiylik odamning badanidir, himmat uning joni: himmat-lillardan dunyoga yuz ming kushoyish bo‘lar, himmatsiz kishi er sonida emas, jonsiz badanni kishi tirik demas».

«Tiling bilan ko‘nglingni bir tut, ko‘ngil va tili aytgan so‘ziga but. So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga keltirma».

«Oqil chin so‘zdan o‘zgani demas».

Kishi chinda so‘z desa zebo durur,

Necha muxtasar bo‘lsa avlo durur.

Vazifa: O‘qing, tahlil kiling! («Mahbub ul-qulub»dan ayrim tanbihlar**)**

1. Oz gapirmoq — hikmatga sabab, oz emoq — sog‘liqqa sabab. Og‘ziga kelganni demoq — nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq — hayvonning ishi.

2. Olim kishi bir johilni qarshisiga o‘tkazib, uni mulzam qilishni istasa, bu olimning o‘zi uchun haqoratdir. Olim avvalo, o‘z ilmining darajasi va salmog‘ini asrashi kerak, gavharni sinab ko‘rish uchun toshga urmasligi kerak.

3. Sayyodning baliqqa qarmoq tashlashi — nafs muddaosi uchun; baliqning qarmoqqa ilinmog‘i ham xuddi shu balo uchun.

4. Qanoat ehtiyojsizlik negizidir, izzat va sharaf tantanasidir. Qanoatli kambag‘al — davlatmanddir; uning shohu gadoga ishi tushmaydi.

5. Chin so‘z — mo‘tabar; yaxshi so‘z qisqa — muxtasar. Ko‘p so‘zlovchi — zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi aqldan ozgan. Ayb izlovchi - aybli; kishi aybini gapiruvchi — o‘ziga yomonlik sog‘inuvchi.

6. Fosiq olim — o'ziga zolim donishmanddir; davlatmand baxil — o'z ziyonini ko'zlovchi nodondir. Bu ikki toifa — umrini bekorga o'tkazadi va go'rga xasratu armon olib ketadi.

7. Yel agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog' — agar tuproqqa botsa ham salobatlidir.

8. Bilmaganin so'rab o'rgangan — olim; orlanib so'ramagan — o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib — dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib — daryo bo'lur.

9. Nafs balosiga uchragan odamning eyishdan boshka hunari yo'q; xudbin odam gap sotishdan bo'lakka yaramaydi. U biri harom ovqatdan rohatlanadi, bu biri esa doim o'zini maqtab orom oladi.

10. Odamning yaxshisi — yomon narsalardan saqlanuvchi, pok bo'lgay va xaq so'zni aytishda xech narsadan qo'rwmagay. O'zi pok, ko'zi pokli inson desa bo'lur...

11. Yaxshi odamlardan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas. Yaxshilik qila olmasang — yomonlik ham qilma.

Mavzu bo'yicha mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Alisher Navoiy qachon va qaerda tug'ilgan?

2. Navoiy asarlarini keltiring va qisqacha izohlang.

3. «Navoiy» va «Foniy» taxalluslarining mohiyatini tushuntiring.

4. Navoiy asosan qaysi shaharlarda yashagan?

5. Alisher Navoiy o'qituvchi — ustoz haqida.

6. «Er kishiga zebu-ziynat — ilmu hikmatdir, yaxshi kiyinish esa xotinlar uchun bezakdir» - baytining mohiyatini yoritib bering.

7. «Xamsa»da nechta doston bor, nomlari?

8. «Mahbub ul-qulub» alloma shoir Navoiyning umri oxirida yozilgan asar. U qachon yozilgan va qaysi masalalarini o'zida qamraydi?

9. «Mahbub ul-qulab» necha qismidan iborat, ikkinchi qism necha bobdan iborat?

10. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash uslub va usullari qay darajada o'z ifodasini topgan?

11. Alisher Navoiyning ta'lif-tarbiya masalalariga doir qarashlari.

12. Navoiy aforizmlaridan namuna keltiring?

13. Navoiy nazdida adab — bu insoniy olijanob xislatlarning asosidir. Shuni izohlang.

14. Alisher Navoiy axloqiy qarashlarida va fodorlik va chin do'stlik inson ziynati deb ta'kidlanadi. Sizning fikringiz?

15. Navoiy odamlarni Vatanni sevishga da'vat etadi: Vatan tuyg'usi naqadar kuchli ekanligini — kabutar haqidagi xikoyasida ifodalaydi. «Xamsa»dan mazkur hikoyani topib o'qing va tahlilini bering.

16. Mazkur baytni izohlang. Navoiy fikricha:

Elga sharaf bo'lindi johu nasab.

Lek sharaf keldi xayovu adab.

Bilib qo'ying!

Buyuk mutafakkir bobomiz qariyb olti yuz yil narida turib bo'lsa-da, nafaqat o'z xalqining, balki bani bashariyatning ham ma'naviy olamini boyitishda bevosita ishtirok etib, ma'naviy-ruhiy madadkor bo'lib turibdi. Kurrai zaminda uning asarlaridan bahramand bo'limgan, ilg'or g'oyalari va ta'limotidan ruhiy quvvat olmayotgan, ijodiy foydalanmayotgan mamlakat, xalq va millat yo'q, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiy asarlari jamiki odamzotga mehnat va halol-likdan, do'stlik va hamkorlikdan, rostguylik, sofdillik va samimiylidkan hayotiy saboq bermoqda, ular xaromho'rlik vaadolatsizlikni, fitna-fujur o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayrongarchiliklarga sabab bo'ladigan urushlarni esa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham egadir. Navoiy umuminsoniyatga xos bo'lgan daholardan biridir.

Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. — T., 1960.

2. Xondamir. Makorimul axloq. — T.: «Fan», 1991.

3. Alisher Navoiy. Maxbub ul-qulub. — T.: «G'.G'ulom», 1983.

4. A.Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.

5. K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi (ma'ruzalar matni). 2-qism. — T., 2001.

6. I.Husanxo'jaev. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. — T.: O'rta va Oliy maktab, 1963.

10-mavzu: ABDURAHMON JOMIY VA JALOLIDDIN DOVONIYNING TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI

Reja:

1. Abdurahmon Jomiyning hayoti va faoliyati.
2. Abdurahmon Jomiyning ta'limiylarini qarashlarini ifodalovchi asarlari tahlili.
3. Abdurahmon Jomiyning axloqiy-ta'limiylarini qarashlaridagi tarbiya mazmuni, shakl va uslublari
4. Jaloliddin Dovoniyning ilm — fan taraqqiyotida tutgan o'rni.
5. Jaloliddin Dovoniylarini kamolotni tarbiyalashda shaxsning o'rni haqida.
6. Jaloliddin Dovoniyning shaxsni ma'naviy shakllantirishga oid qarashlari.

Abdurahmon Jomiy XV asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta'minlash yo'llari xususidagi g'oyalarni keng tasvirlangan.

Allomaning to'liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad bo'lib, u 1414-yilning 7 noyabrida Jom shahrida tavallud topgan.

Abdurahmon Jomiyning oilasi keyinchalik Hirot shahriga ko'chib o'tadi. Bu davrda Xurosonda Shohruh Mirzo hukmronlik qilar, Hirot shahri esa eng yirik madaniy markazlardan biri sanalardi.

Yosh Nuriddin Abdurahmon maktabga juda erta qatnay boshlagan. Uning otasi o'z davrining ziyoli kishilaridan biri bo'lganligi uchun o'g'lining bolalikdan bilim olishiga kata e'tibor bergen.

Abdurahmon Jomiy mакtabni tamomlagach, «Nizomiya» madrasasida tahsilni davom ettirdi. Madrasada tahsil olish davrida u arab tili grammatikasini puxta o'rgandi, shuningdek, arab tilida yaratilgan hamda aruz vazni va uning o'ziga xos jihatlari hamda qofiya ilmidan saboq beruvchi asarlar mazmuni bilan tanishib chiqdi. Ko'plab badiiy asarlarning sharhlari bilan tanishishga musharraf bo'ldi. Ayni vaqtida Sa'diddin Qoshg'ariy, Shayx Bahovuddin Umar va mavlono Muhammad Asad kabi alloma-


larning qo'lida tahsil oldi. Abdurahmon Jomiy badiiy asarlarni yaratishga oid ilmlarni puxta o'zlashtirganligi hamda nasriy va nazmiy asarlarni birdek muvaffaqiyatli yarata olish qobiliyati bilan ustozlarining tahsiniga sazovor bo'ldi.

Biroq Abdurahmon Jomiyda o'zi egallagan bilimlari darajasida qoniqmaslik hissi ustun edi. Shu bois bilimlarini yanada oshirish maqsadida Samarqand shahriga yo'l oladi. Mazkur davrda Samarqand shahri ulug' mutafakkir Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning boshqaruvi ostida bo'lib, u madaniyat va ma'rifat o'chog'iga aylangan edi. Mirzo Ulug'bekning rahbarligi ostida matematika, fizika va astranomiya kabi fanlarning rivoji yo'lida samarali tadqiqotlar olib borilayotgan edi. Samarqand shahrida bo'lgan vaqtida Abdurahmon Jomiy o'z zamonasining etuk olimi Qozizoda Rumiy tomonidan o'qilgan ma'ruzalarni tinglashga muvaffaq bo'ldi. Hirot shahriga qaytgach, mashhur olim, Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning sevimli shogirdlaridan biri Ali Qushchi tomonidan sinovdan o'tkazildi.


Alloma va she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy bilan Jomiy o'rtasida mustahkam do'stona aloqa mavjud bo'lib, ushbu aloqa ham badiiy ijod, ham maishiy turmushm, ham ijtimoiy munosabatlardan sohasida yaqqol ko'zga tashlanar edi. 1469-yilda Hirot shahrida asos solingan mazkur do'stlik alloma hayotining so'nggi daqiqalarigacha davom etdi.

Buni bilib quying!

Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodiy faoliyati, ta'limiylar va tarbiyaviy qarashlari borasida tadqiqotlar olib borgan mashhur sharqshunos olimlar



Eslab qoling!




Abdurahmon Jomiy 1472-yilda haj safari bilan Makka shahriga otlanadi, ushbu safar jarayonida turli shaharlarda bo'lib, mashhur shoir, olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo'ladi, adabiy jarayon, uning o'ziga xos yo'naliishlari va mazmuni bilan tanishadi. Ikki yillik safardan so'ng Hirot shahriga qaytadi va o'zi orttirgan boy tajribaga tayangan holda ijod qiladi.


Jomiy uchta lirik devoni, yetti dostondan iborat «Haft avrang» (Yetti taxt), ta'lim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi. Uning barcha asarlari sonini tadqiqotchilar 46 ta deb aniqlaganlar (A.Qayumov).

Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida inson kamolotining barcha mezonlarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, alloma insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy omillarning roli ham beqiyos ekanligini ta'kidlaydi.

Jomiyning ta'limiy-axloqiy asarlari



Umuman, Jomiy asarlariда etuk inson tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy sifatlar har tomonlama asoslangan holda ifodalangan bo'lib, ular bugungi jamiyatimizning bosh muddaosi bo'lmish komil inson tarbiyasini amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.



O'qib mushohada qiling!

Jomiy o'zining «Silsilat-uz zahab» («Oltin tizmalar») dostonidagi «Sevimli aziz farzandimga nasihat» bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa

bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Shuningdek, «Nasihat» bobida yoshlikning qadriga yetish, elga manfaat keltirish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, do'stlarga mehribon va sadoqatli bo'lish, bahillikdan hazar qilib ehson tomon yuz tutish, kitobga ulfat bo'lib, uni beminnat ustoz bilish, ma'rifatga oshno bo'lib, manmanlik va takabburlikdan saqlanish, va'daga vafo qilish, muloyimlikni pesha qilib donolar nasihatidan bahramand bo'lishni uqtirib o'tadi.

Mushohada uchun bobni to'liq keltiramiz*:

Yetdi yoshim yetmishga, sendek edim yetti yosh,
Mening baxtim qoraydi — sening iqboling quyosh.
Achinaman shunchaki, umrim o'tib ketibdur,
Parishonman, qanchalab oyu yillar o'tibdur.

Arzigulik biror ish qilolmadim vaqt o'tdi,
Tikandan ortiq bir gul, uzolmadim vaqt o'tdi.
Ketdi darig'o qo'lidan, u fursat qaytib kelmas,
Ixtiyorning tizgini qo'lga qayta ilinmas.

Senda bor kuch, bilak, dam g'animat, g'ayrat qilgil,
Boshda yoshlik soyabon, uning qadriga etgil.
Bir ish qilginki faqat elga etkizgin manfaat,
Oxirida u ishing, senga keltirsin rohat.

Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo'l,
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon olgil yo'l.
Har bir kishiga so'z, oyna kabi ayondir,
Dono tirik hamisha, nodon o'liksimondir.

Mardonialikni kimki da'vo qilar ekan yosh,
Nega o'zini aylar u, murdalarga ham bosh?
Ilm yo'liga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,
Ammo umrning yo'li, g'oyatda qisqa bir on.

¹ O'zbek tilida birinchi marta «Pedagogika tarizi» o'quv qo'llanmasida berilyapti. (G. Niyozov, M. Ahmedova).

Hech bir kishiga bo'lmas, qayta yashash tuyassar,
Egalla sen bilimni, mangu turar muqarrar.
Bilim egalladingmi, unga doim amal qil.
Ilming amalsiz bo'lsa, sen oni bir zahar bil.

Faraz qildik bilarsan, ul ilmi kimyonи,
Zar qilmasang misingni, qolmas ishing nishoni.
Xom ish kishiga hargiz, bir manfaat ham berolmas,
Xom bo'lsa, holva ham, bir kasallik yuqtirar, bas.

Har kimki yaxshilik-la, aylar seni navozish,
Sen oni haqqiga hech, ko'rma ravo yomon ish.
Tulki kabi agarda, quyruq ko'rsang quvonsang,
Kuchuksimonlar sening, holingni etguvchi tang.

Har joyni tuzin tortding, shu tuzing oqlagil,
Shogirdni ham farzanddek, el ichida yoqlagil.
Do'stlarga mehribonu, ochiq ko'ngil, saxiy bo'l,
Yurma baxillik sari, budir zararli bir yo'l.

Do'stlarga ayla doim ehsonu, lutfu baxsh ish,
Qarzing og'irligi-la, berma ularga tashvish.
Chin do'stga, ey azizim, jonningni sen fido qil,
Lekin, do'stu dushmanni bir-biridan ayro bil.

Do'st u kishi erurki, yoring, g'amxo'ring bo'lsin,
Qalbi hamisha do'stlik, yog'dulariga to'lsin.
Tushganda boshga mushkul bo'lsin senga madadkor,
Nasihat-la qaytarsin, yomon yo'ldan u zinhor.

Yomon yo'ldan qaytargan do'sting seni qo'llagay,
Xamirdan qil sug'urib, yaxshi yo'lga yo'llagay.
Yaxshi ishga u bo'lur, haqiqatdan senga yor,
Rahbar bo'lib bu ishga, u keltirar iftixor.

Kitobga yuz o'girgin, ey jigarim, farzandim,
Kitobga ulfat bo'lgil, qulooqqa ol bu pandim.
Tanhilikda munising, bilsang agar kitobdir,
Donolikning tongiga, sho'"la sochar kitobdir.

Bepul, beminnat senga, ustoz bo'lib o'qitar,
Bilim bag'ishlab senga, chigillaringni echar.
Kitobdir yaxshisi ham, teri yopingan olim,
Ish siridan goh so'zlab, ammo gohi turar jim.

Uning ichi g'unchadek, varaqlardan liq to'la,
Har varag'i go'yoki, durdonadir bir yo'la.
Qasru ayvonlari bor g'oyat zebo, munaqqash,
Unda maskan ko'rgandir necha yuzlab parivash.

Parivashlar hammasi - xushbo'y, chiroyli, ruxsor,
Bir-biriga yarashgan, bir-biriga talabgor.
Har bir varaq yopishgan, bir-biriga hamnafas,
Varaqlasang alarda, har biridan chiqar sas.

Og'iz ochib har biri ma'rifikatdan so'zlashar,
Har so'zidan yuz tuman ma'no-mag'zidin toshar.
Ular gohda kuylashar, mehru vafo madhini,
Ular gohda sharq etar sidqu safo madhini.

Ular gohda aytadi, qo'hna zamon qissasin,
Ular gohda bildirar, kelgusi ish hissasin.
Ular gohda tarixdan, ochiq oydin ochar so'z,
Ular gohda kelgusi, kunlardan ko'rsatar yuz.

Ular gohda ash'ordan, qalbingki daryo qilur,
Ma'orif gavhari-la, dilni musaffo qilur ...
Aytmoq uchun siringni, labingni ochsang agar,
Yaxshi, yomonligin o'ylab, so'ngra qilar bir xabar!

Shuni yaxshi bilginki, gar uchsa qush qafasdan,
Qaytib uni ushlarloq, bir ishki mushkul haddan...
Bo'lsa agar zamiring, aslida xira-nosof,
Sen ma'rifikat haqida, yaxshisi urmagil lof.

Takkaburlik ziyyondir, undan qilgil andisha,
Muloyim bo'l odamga, kamtarlik qilgil pesha.
Ko'rningmi u boshoqni, bosh ko'tardi na bo'ldi,
O'roqning zarbi bilan, yerga yiqildi, so'ldi.

Ko'rdingmi don o'zini, tuproqqa tashlar qamtar,
 Uni avaylab erdan, ko'targusidir qushlar.
 Kimki kamtarlik aylar, udir ulug'likka xos,
 Egilgan boshni har kim, ulug'laydi beqiyos.

Va'da berdingmi, albat, sen va'daga vafo qil!
 Bevafolik yomondir, o'zni undan suvo qil!
 Nodonlardek otangning, kimligin pesh qilma,
 O'zingga sen hunardan, o'zgani ota bilma.


Tutun garchi otashning, farzandi bo'lsa ham, bas,
 Ne foydaki tutunga, otash ziyosi yuqmas?!

Dono nasihatini, tutkil qo'loqqa mahkam,
 Idrok etib pandini, dardingga ayla malham.

Nainki nodonlardek, bir qulooqqa eshitsang,
 Nasihatini ammo darhol esdan chiqarsang!
 «Uyda kishi bo'lganda, faqat bir so'z kifoyat!»
 Mashhurdirki bu masal, mazmuni pandu hikmat.

tarjimon G.Niyozov

Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang» («Yetti taxt») asari yetti dostonni o'zida qamragan bo'lib, ular quyidagilar:



Abdurahmon Jomiyning tarbiyaviy qarashlari:

1. Har bir yosh ilm egallashda kitobni sevishi va uni o'ziga beminnat do'st deb bilishi lozim.
2. Bilimni yoshlikdan egallash, johillikdan, nodonlikdan chiqish yo'lidir.

3. Bilim, hunarsiz kishi o'tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshaydi.
4. Ilmga amal qilmaydigan mulla do'stiga katta kitoblar ortilgan eshak misoli besfoydadir.
5. Har bir yosh ota mansabi, shon-shuhratiga mag'rurlanmasdan, o'z yo'lini mustaqil tanlashi va ilm-hunar o'rganishi shart.
6. Hunar o'rganish har bir kishi uchun, u yoshmi, keksami, shohmi, oddiy fuqaromi barchaga barobardir.
7. Haqiqiy insonlarga xos bo'lган xislatlardan yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlikni tarbiyalashga e'tibor qaratish zarur.
8. Saxovat biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab qilinsa, xatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo'lган taqdirda ham, u saxovat emas.
9. Inson bir-biri bilan munosabatda bo'lar ekan, uning boshqalarga nisbatan do'stona munosabati ham kamolot belgisidir. Haqiqiy do'stlikning belgilari do'stga sodiqlik, qiyin paytlarda undan qochmaslik, hamdard, hammehr bo'lish, do'stligi evaziga biror narsa talab etmaslikdir.
10. Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgin mudom,
Yaxshilikni sen o'zingga pesha qil,
Hech kishiga ranju ozor bermagil.
11. Agar rahbar nodon, johil bo'lsa, el boshiga juda ko'p nadomat, kulfat va zulm yog'ilishi mumkin.

Buni yod oling!

Odamning qiymati emas, duru-zar,
 Odamning qiymati bilim ham hunar.
 Nazar sol, dunyoda hunar tufayli,
 Hojasidan qadri ortiq ko'p qullar.

Eslab qoling!

Abdurahmon Jomiyning «Solomon va Absol» dostonida esa tubdan his-tuyg'ulardan tozalanib, ma'naviy kamolotga erishish yo'li badiiy tarzda ifoda etiladi.

Jomiy mazkur dostonida ibratli rivoyatlar misolida kishilarga tuban hislardan tozalanib, ma'naviy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib beradi. Inson har qanday hirsu maydan yuqoriroq bo'lishi, aql-idrok va sog'lom fikr yuritib ish ko'rishi lozim degan fqrashni ilgari suradi va tasavvuf g'oyalarini tarannum etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, alloma o'z asarlarida insonni ulug'laydi, uni ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarishning asosiy mezonlaridan biri bilimlilik, aqliy kamolotning yuksak darajasiga erishishi zarurligiga alohida e'tibor bergen.

Jomiy ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning ikkinchi bir jihatni ahloqiy barkamollik deb bildi va ahloqiylik - yuksak xulqodob mezonlari sifatida insoniylik, adolat, mehnatsevarlik, sahovat va karam, mehr-muruwwat, chin insoniy muhabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik kabi xislatlarni ulug'ladi va takabburlik, mol dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, johillik bilan bog'liq illatlarni qoraladi.

Buni bilib qo'ying!



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, Jomiy asarlarida ilgari surilgan fikrlar hozirgi davrda inson tarbiyasida muhim dastur bo'lib xizmat qiladi.

Yodlab oling!

Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm — fani va mada-niyatining faxri. Sharq ma'naviyatini yangi bir yuksak cho'qqiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, ustoz murabbiyidir.

M. Xayrullaev

Bilib qo'ying!

Agar inson xulqi o'zgaruvchan bo'limganida edi, unda aqlning bilish quvvati befoyda, siyosat hamda ta'lim-tarbiyaning esa keragi yo'q bo'lur edi.


J. Davoniy

Davoniyning to'liq ismi Jamoliddin Muhammad Asad-as-Siddiqiy ad Davoniy bo'lib, 1427-yilda Eronning Kazarun viloyatiga qarashli Davon qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidanoq ilm-fanga, ayniqsa fiqhshunoslikka qiziqadi va boshlang'ich maktabni qishlog'ida bitirgach Sherozga kelib, madrasada yirik olimlar qo'lida tahsil oladi. Keyinchalik Sheroz shahrining qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, madrasada mudarrislik qiladi. Ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi. 1502-yilda Kazardi shahrida vafot etadi va Davon qishlog'iga dafn qilinadi.

Tadqiqotchi olimlarning xabar berishicha Eron, Iroq, Hindiston, O'rta Osiyoning ko'p shaharlarini kezib, olimlar bilan uchrashadi, ular bilan falsafaning turli muammolari bo'yicha bahs yuritadi.

Maryam Mirhodiyning (tehronlik tarixchi olim) aytishicha, Davoniy yuksak qobiliyat egasi bo'lgan, u o'zi topgan butun boyligini ilm — fan ravnaqiga sarflagan.

Buni bilib qo‘ying!



Buni yodda saqlang!

Jamoliddin Davoniyning ilmiy merosi juda boy bo‘lib, o’sha davr olimlari orasida yozgan risola va asarlari ko‘p fanlarni o’rganish uchun qo‘llanma vazifasini o’tagan.

Asarlari:

1. «Risolayi isboti vojib» (Zaruriyatning isboti haqidagi risola)
2. «Risolat ul — xuruf» (Harflar haqida risola)
3. «Risolayi fi tavjix ul — tanbix» (Majoz talqini haqida risola)
4. «Risola dar ilm ul — nafs» (Ruhshunoslik haqida risola)
5. «Tariqati tarbiyat ul — avlod» (Bolalarni tarbiyalash usuli)
6. «Arznama» (Qo‘shinni boshqarish mezonlari) kabi asarlari ma'lum.

J.Davoni asarlari Xuroson va Movarounnahrda ham tarqalib, bu yerda turli ilmiy yo‘nalishlarga, ma’naviy hayotga ta’sir ko‘rsatdi. Davoniyning eng katta yirik asari «Axloqi Jaloliy» asari bo‘lib bu asar 1470—1478-yillar orasida yozilgan. Bu asar 1839-yilda olim V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, qo‘lyozmasi dunyoning juda ko‘p kutubxonalarida mavjud.

Bilasizmi?

Asarni J.Dovoni G‘arbiy Eron hokimi, Oqqo‘yinlilar sulosasi vakili Uzun Hasanga bag‘ishlagan.

**Axloqi Jaloliy uch qismdan iborat bo'lib
yana mayda «lavom» larga bo'linadi**

1-qism: Axloq faniga bag'ishlanadi.
Axloqning asosiy tushunchalari adolat, shijoatkorlik, donolik, iffat, hayo, mehribonlik va boshqalarga to'xtaladi

2-qism: Odamning ichki xolati deb nomlanib oilaviy hayotga bag'ishlanadi, bolalarni tarbiyalab kamolga yetkazish, kasb-hunarni egallash, xulq-odob qoidalari, ota-onalarning o'z bolalriga munosabatlari shunga o'xhash muammolar haqida fikr yuritiladi

3-qism: «Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati» deb ataladi. Davlat boshliqlari bilan fuqarolarning o'zaro munosabati, jamiyat haqida, shaharda yashovchi xalqlar haqida ma'lumot beradi

«Odamlar birlashib, bir-biriga yondamlashganda boshqalar to'g'risida chinakamiga qayg'uradi, o'zaro yordam va aloqa o'rnatilganda adolatning sinalgan yo'llari paydo bo'ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi»

Davoni. Axloqi Jaloliy, 135-bet

Testlar

1-savol

J.Davoni asarini ingliz tiliga tarjima qilgan olim.

- | | |
|----------------|-----------------|
| a) M.Mirhodiy | v) X.Aliqulov |
| b) V.F.Tompson | g) A.A.Semyonov |

2-savol

«Axloqi Jaloliy» asari necha qism yoki bo'limga bo'linadi?

- | | |
|-------------|-------------|
| a) 6 bo'lim | v) 2 bo'lim |
| b) 3 bo'lim | g) 5 bo'lim |

3-savol

Davoni o'z asarini kimga bag'ishlagan?

- | | |
|------------------------------|-----------------|
| a) Sulton Abu Said Temuriyga | v) Uzun Hasanga |
| b) Muhammad ali Tabriziyga | |

4-savol

«Ahloqiy Jaloliy» asari nechanchi asrda yaratilgan.

- a) XV asrda v) XII asrda
- b) IX asrda g) XVII asrda

Mustaqil tayyorlash uchun nazorat savollari:

1. A. Jomiy qachon va qaysi shaharda tavallud topgan?
2. A. Jomiy maktabdan keyin qaysi madrasaga kirib o‘qiydi?
3. Jomiy Samarqandda qaysi alloma ma’ruzalarini tinglaydi?
4. A. Jomiy Navoiy bilan qaysi yilda va qaysi shaharda birinchi marta uchrashadi?
5. A. Jomiy qaysi yili haj safari bilan Makka shahriga boradi? Hirota necha yildan keyin qaytib keladi?
6. Jomiy 1492-yil 8 noyabrdagi necha yoshda va qaysi shaharda vafot etadi?
7. «Haft avrang» («Yetti taxt») asaridagi dostonlarni aytib bering.
8. Jomiyning «Bahoriston» asarining asl mohiyati nimaga qaratilgan?
9. Jomiyning «Iskandar xiradnomasi» va Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarlari orasidagi uyg‘unlikni sharhlang.
10. «Solomon va Absol» dostonida ibratlari rivoyatlar misolida kishilardagi qanday illatlar qoralandi? Asardagi pok tabiatli kishilar nimaga erishadi?
11. Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi do‘stlikka oid misollar keltiring? Ularni izohlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. *Abdurahmon Jomiy*. Tanlangan asarlar / Tuzuvchi va so‘z boshi muallifi Sh.Shomuxamedov. — T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
2. *Abdurahmon Jomiy*. Layli va Majnun. Solomon va Absol / Mas’ul muharrir va so‘z boshi muallifi A.Qayumov. — T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
3. *Shomuhamedov Sh.* Tojik adabiyoti klassiklari. — T.: O‘zadabiyot-nashr, 1963.
4. *Aliqulov X., Omonboeva R.* Jomiy va Davoniylar ta’lim-tarbiya haqida. — T.: O‘qituvchi, 1981.
5. *Xoshimov K.* va boshqalar. Pedagogika tarixi. Qo’llanma. — T.: O‘qituvchi, 1996.

11-mavzu: ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA TA'LIM-TARBIYA XAQIDAGI QARASHLARI


Reja:

1. Ablulla Avloniyning hayoti va ijodiy yo‘li.
2. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar.
3. «Birinchi muallim» va «Ikkinchi muallim» asarlarining tahlili.
4. «Turkiy guliston yohud axloq» asarida komil inson tarbiyasiga oid g‘oyalar.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida o‘qituvchi oilasida dunyoga keldi. U dastlab eski usul maktabida, so‘ng madrasada tahsil oldi. Navoiy, Fuzuliy, Sa’diy va Hofizning boy ijodiy merosini ishtiyoq bilan o‘rgandi. Mumtoz adabiyot bilan oshnolik uning adib sifatida shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Abdulla Avloniy 20 yillarda ilmiy ish bilan ham shug‘ullanadi, 1930-yilda O‘ita Osiyo Davlat universiteti (SAGU) ning professori qilib tasdiqlanadi. U ilmiy xodimlar seksiyasida, O‘zdavnashrda, Respublika fan va texnologiya qo‘mitasida, Davlat ilmiy kengashida mas’ul vazifalarda ishlaydi.

Buni eslab qoling!



Abdulla Avloniyning fidokorona mehnatlari munosib baholanadi. U 1925-yilda «Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda esa «O‘zbekiston xalq maorifi zarbdori» faxriy unvoniga sazovor bo‘ladi.

Adib ijodi va pedagogik faoliyati kamol topgan, gullab turgan bir paytda - 1934-yilning 25 avgustida 56 yoshda vafot etadi.


Buni yodda saqlang!

Abdulla Avloniy o'zbek matbuotining zabardast vakili, o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida shuhrat qozongan allomalardandir.

U matbuot to'g'risida yozadi: «Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, olam-ahvoldan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ittifoq, himmat g'oyalariini yoyuvchidir».




Bilib qo'ying!




Buni yodda saqlang!

«Al-hosil tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir», deb uqtiradi Avloniy.




Buni bilamizmi?

O'zbek pedagogikasi tarixidan A.Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni «Bola tarbiyasi»ning fani deb ta'rif berdi. U 1919—1920 yillarda Afg'onistonning Hirot shahridagi elchixonasida bosh konsul bo'lib ishladi.



A.Avloniy yangi adabiyot dasturi asosida 1933-yilda o'zbek mamlakatlarining VII sinflari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzdi. A. Avloniy tashkil etgan gruppa «Turon»da sahnalashtirilgan birinchi asar Behbudiyning «Padarkush» asaridir.



Avloniy haqidagi ma'lumotingizni oshiring

№	Ma'lumotlar	Javob va izohlar
1	Avloniy boshlang'ich savodni qaysi mahalla va qaysi domlada chiqardi?	O'qchi mahalla, Akromxon domla
2	Avloniy Shayxontoxurdagi Abdumalikboy madrasasiga necha yoshda keldi va qaysi domladan dars ola boshladi?	14 yoshda, mulla Umar Oxund
3	U necha yoshda oila boshlig'i bo'ldi?	22 yoshda
4	Avloniy «Jadid» maktabini qachon ochdi?	1904-yil o'zi o'qituvchi bo'ldi.
5	Avloniy tashkil etgan birinchi ro'znama qachon chiqarilgan?	1907-yil, «Shuhrat» Sapyorlar ko'chasi, o'z uyida.
6	Avloniy qaysi yillarda «Sadoyi Turkiston» gazetasiga muharrirlik qildi?	1914-1915 yillar
7	Mirobod mahallasidagi boshlang'ich maktabdan Avloniyini qachon va nima uchun quvdilar?	1915 yili «domlamiz teatrchi», «masharaboz bo'ldi» deb.
8	A.Avloniy qachon kommunistik firqaga kiradi va qaysi muddatgacha Toshkent shahar va eski shahar sho'rosi a'zosi bo'lib xizmat qiladi?	1918-yil, 1918—1923 yilgacha.
9	Avloniy qachon Afg'onistoniga yuborildi va u Hirotda qaysi vazifada ishladi?	1919-yil 15-iyulda Turk SIK tomonidan, general konsul.
10	«Kasabachilik harakati» jurnalida qachon va qaysi vazifada ishladi?	1920-yil, nashriyot sho'basining mudiri.
11	Qaysi yillarda Avloniy Turkfront qoshidagi millat, harbiy-siyosiy maktabda ishladi?	1924-yil 15 yanvardan 1929-yilgacha 6-yil. O'z arizasi bilan bo'shamdi.
12	O'zbekiston Markaziy ijroqo'miga qaysi yili a'zo bo'ldi?	1929-yili
13	1930-1931 yillarda Avloniy SAGUNing qaysi bo'limida va qaysi vazifada ishlagan?	Pedfak bo'limida, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini raisi va o'qituvchisi
14	A.Avloniyning she'riy taxallusini aytинг va misollar keltiring? Yetar ohu fig'on, Hijron, yetar bu xobbi bepoyon, O'yalamoq vaqtidur, g'aflat boshiga mushtlamaymizmu?	Hijron

Buni yod oling!

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy Guliston yohud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish borasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud ahloq» asari axloqiy va ta’limiy, tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm — ahloq haqida fikr yuritiladi».

Abdulla Avloniyning pedagogik g‘oyalari

Uning fikricha:

1) Tarbiya bola tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrining oxirigacha davom etadi.

2) Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birini vujudi biriga bog‘langan jon ila tan kabidir.

3) Aql — insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, ruh ishlovchi, aql boshlovchidir.

4) Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur.

5) Ilm dunyoning izzati oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas bir fazilatdur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur.

6) Insonni kamolotga etkazishda bosh omil bo‘lgan aql, ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, sa‘y-g‘ayratni talab etadi.

7) Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar er yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar.

8) Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan erini jonidan ortiq suyar. Vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor.

9) Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatuvchi oynai hayoti, tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdir.

10) So‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgan tarozidir.

11) Chin do‘sit bo‘lgan kishi boshingga kulfat va qayg‘u kelgan vaqtlarda san ila barobar qayg‘urur, xotirangdagi qayg‘uni bo‘lishib olur.

Abdulla Avloniy hayoti va ijodi bo'yicha TESTLAR

1-savol

Avloniyning «Adabiyot yohud milliy she'rlar» deb nomlangan asari necha juzdan iborat va oxirgi juz nima deb yuritiladi?

- a) 4-juz, «Ilm gulistoni» b) 4-juz, «Maktab gulistoni»
- v) 5-juz, «Hajviyot» g) 5-juz, «Maktab gulistoni»
- d) 3-juz, «Ahloq gulistoni»

2-savol

«Turkiy guliston yohud ahloq»ning birinchi nashri qachon va ikkinchi nashri qachon nashr qilindi?

- a) 1913-yil va 1917-yil b) 1914-yil va 1917-yil
- v) 1912-yil va 1916-yil g) 1913-yil va 1918-yil
- d) 1913-yil va 1919-yil

3-savol

«Turkiy guliston yohud ahloq»ning «Yomon hulqlar» bobida kishilarga xos 18 qusur bir narsaga bog'lanadi. U nima?

- a) Razolat b) Jaholat
- v) Nodonlik g) Buzuqlik
- d) Muhtojlik

4-savol

Avloniyning «Fig'oni bulbul» she'ridan olingan parchada «bulbul» va «gul» qanday obrazi hisoblanadi?

- Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,
O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul.
Ko'rib gul yafrug'ini hajridan dod etdi bir bulbul,
Visoli yor uchun yuz navho inshod etdi bir bulbul.
- a) «Yor» va «ag'yor» b) «Oshiq» va «ma'shuq»
 - v) «Shoir» va «millat» g) «Shoir» va «xalq»
 - d) «Ilm» va «ma'rifat»

5-savol

Abdulla Avloniyga «Mehnat qahramoni» unvoni qachon berilgan?

- a) 1928-yil b) 1926-yil
- v) 1929-yil g) 1927-yil
- d) 1925-yil

6-savol

Taniqli teatr artisti Gavhar Zokirova Avloniyga kim bo‘ladi?

- a) Qizining nabirasi b) O‘g‘lining qizi
- v) Nabirasi g) Opasining qizi
- d) Akasining qizi

7-savol

«Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdir».

Mazkur parcha Avloniyning qaysi asaridan olingan?

- a) «Birinchi muallim» b) «Uy tarbiyasining bir shakli»
- v) «Turkiy guliston yohud ahloq» g) «Ikkinchchi muallim»
- d) «Maktab gulistoni»

8-savol

Avloniya «Xalq maorifi zarbdori» faxriy unvoni qachon berildi?

- a) 1929-yil b) 1930-yil
- v) 1927-yil g) 1928-yil
- d) 1931-yil

9-savol

Avloniy qachon va qaysi sanada vafot etgan?

- a) 1933-yil 25 oktyabr b) 1934-yil 20 avgust
- v) 1935-yil 25 avgust g) 1934-yil 25 avgust
- d) 1935-yil 25 avgust

Vazifa

Avloniyning «Birinchi muallim» va «Ikkinchchi muallim» asarlaridan quyidagi ibratli hikoyalarni tahlil qiling.

Nº	Hikoyaning nomi	Ibratli jihatlari tahlili	Qaysi asardan
1	«Manlikni jazosi»		
2	«Yaxshilik erda qolmas»		
3	«Aqlli qarg‘a»		
4	«Arslon ila ayiq»		
5	«Qalanfir ila gul yalpizi»		
6	«Ayiqning do‘stligi»		
7	«It ila gado»		

«Turkiy guliston yohud axloq"da keltiriladi:

Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dalillovchi misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur.

Axloq tarbiyasi — insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguchi tarbiyadur. Yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, xilm, nafs, vijdon, intizom, muhabbat va avf, idrok, hifzi lison, iqtisod, xavf va rijo, vatanni suymaq, iffat, hayo, zako. Yomon xulqlar: shahvat, g'azab, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, xasoat, raxovat, namimat, g'iybat, haqorat, hasad, nifoq, tama', zulm.

Xulosa

Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiyaning barcha muhim jabhalari haqida fikr yuritadi. Bu boradagi qarashlari, o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanki, shu jihatdan uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani oyoqqa turg'izish jarayonida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. *Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jildlik.* — T.: Ma'naviyat, 1998.
2. *A. Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar.* — T.: Fan, 1996.
3. *K. Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi (ma'ruzalar matni)* 2-jild. — T., 2001.
4. *G. B. Niyozov, Sh. G. Niyozova. Pedagogik texnologiyalar va ularni amalda joriy qilish usullari.* — Angren, 2003.
5. *H. Boboev va boshqalar. Milliy istiqlol maskurasi va taraqqiyot.* — T.: Yangi asr avlodi, 2001.

12-mavzu: ABDUQODIR SHAKURIY VA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATI

Reja:

1. Yangi usul maktabini tashkil etishda Abduqodir Shakuriyning pedagogik faoliyati.
2. Shakuriy tomonidan yaratilgan maktab darsliklari va ularning tasnifi.
3. Abduqodir Shakuriyning maktab, o‘qitish mazmuni haqidagi fikrlari.
4. Shakuriyning maktab, maorif sohasida va pedagogik fikr taraqqiyotida tutgan o‘rni.

Buni yodda saqlang!

Jadidlar davri pedagogikasini Abduqodir Shakuriy siy whole siz tasavvur qilish qiyin, chunki u o‘z zamonasining etuk olimi, maorif fidoiysi edi. Shakuriy Samarqandda yangi usuldagagi birinchi maktabni tashkil qilgan kishidir.

(M. Hoshimova)

Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqand viloyatining Narpay (Nahripay) tumanidagi Rajabamin qishlog‘ida (ba’zi manbalarda Jomboy tumanida deb beriladi) bog‘bon oilasida tavallud topdi. «Rajabamin» qishlog‘i Kattaqo‘rg‘on shahri va tumaniga chegaradosh bo‘lganligi bois o‘z qishlog‘i tumani va qo‘shni tumanlarga ham tez-tez borib, Turkistondagi uyg‘onish jarayonidan odamlarni xabardor qilar edi. Abduqodir Shakuriy asosan «Tarjimon» gazetasi orqali Qrim, Tatariston, Ozarbayjon maktablaridagi yangi o‘qitish usullaridan voqif bo‘ldi. Keyinchalik esa o‘zi ham ana shu yangiliklarni amaliyotga joriy qiladi. 1901-yilning kuzida o‘z qishlog‘i «Rajabamin»da yangi usuldagagi maktabni tashkil etadi.

Buni bilib qo‘ying!

Shakuriy jadidchilik harakatini Mitan, Kattaqo‘rg‘on, Zirabulqoq (Narpay) Oqtosh, Ziyadin (Paxtachi), Jomboy, Bulung‘ur, Pastdarg‘om shahar va tumanlarida boshlangan. U mazkur joylar-

dagi aholiga, aniq dasturlar asosida dars mashg'ulotlari o'tgan. Shakuriy qishlog'ida o'z mablag'i bilan maktab tashkil etib, kambag'al oila bolalarining savodini chiqarishga yordam beradi.

Chor hukumat amaldorlari, eshon-mullalar yangi maktab sharoitini, yorug' xonalarda parta, stol, stul, yozuv doskalari-dagi yozuvlarni ko'rib «bu maktabda o'qigan bolalar kofir bo'lib yetishadi» deb Shakuriy maktabiga qarshi chiqadilar. Shakuriy va uning shogirdlari, safdoshlari bu e'tiqod yo'lidan chekinishmadi, bu maktabdagi yangiliklarni Samarqand maktablariga, Buxoro maktablariga targ'ib qildilar.

«Shakuriyning yo'lga qo'ygan ishlari chinakamiga jasorat desak mubolag'a bo'limas», — deydi taniqli olimimiz K.Hoshimov.

Shakuriy ham diniy ham dunyoviy fanlarni o'rgatgan, jadidchilikni targ'ib etgan, xalqini jaholat botqog'idan qutqarishga yordamlashgan buyuk zotdir.

(M.Ahmedova)

Taniqli olim Jo'ra Yo'ldoshev o'zining «Ta'lim istiqlol yo'lida» nomli kitobida shundy fikrlar bor.

Shakuriyning o'qish, o'qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati	
Birinchidan	O'sha davr eski uslubdagi o'qitish usullarini, o'qish kitoblarini rad etib, savod chiqarishni engillatish maqsadida bo'g'in usuli, keyinchalik tovush – harf uslubini qo'llaydi. Qulayligi: O'quvchilar ko'pi bilan 6 oy ichida savodini
Ikkinchidan	Maktabda birinchi marta kichik yoshdagagi o'g'il – qiz bolalarni birga o'qitish uslubini joriy qildi.
Uchunchidan	Bolalarni o'z ona tilida o'qitishga qat'iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni tojik, arab, rus tillarini ham mukammal o'rganishga da'vat qildi.
To'rtinchidan	Yangi usuldagi maktablar uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi.
Beshinchidan	Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarini kiritdi.
Oltinchidan	O'z o'quvchilarini qishloq xo'jaligi, bog'dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgadi. Bu mashg'ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ajratilgan edi.

1925-yilda tumanning «Rajabamin» qishlog'ida aholi o'z mablag'lari hisobidan 4 sinfli yangi maktab (1-4 sinf) qurib ishga tushiradi va unga Shakuriyni boshliq etib tayinlaydi. 1943-yilda Shakuriy vafot etdi. Uning ma'rifatchilik va pedagogik faoliyati Turkistonda XX asrning boshidagi umumiy ma'naviy o'zgarishlar, ilg'or pedagogik va ijtimoiy-falsafiy fikrlar jadidchilik harakati rivojiga muhim ta'sir ko'rsatdi. U o'z iste'dodi va tajribasi bilan o'zbek milliy maktablarining, taraqqiyoti, undagi jadidchilik yo'nalishining rivoj topib borishiga katta ta'sir ko'rsatdi.


Shakuriy o'z xalqi, vatanining farovonligi, ma'naviy yuksalish yo'lida charchamay, to'sqinliklarga qarshi kurashib, nihoyatda foydali ishlarni amalga oshirdi.

Eslab qoling!

A.Shakuriy, M.Behbudiy Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlarida birinchi marta jadidchilik harakatini targ'ib qilgan fidoiy ma'rifatparvar olimlardir.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida rus mustamlakachilik siyosati tufayli hayotda ro'y berayotgan fojiali voqeа-hodisalar yerli xalqlarning insoniy huquqlarini poymol qilib, iloji boricha ularning tarixi, urf-odatlari va an'analarini unutishga, kamsitishga majbur qila boshladi.

Natijada O'rta Osiyo o'lkasida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Bu milliy uyg'onish davrining boshlanishi bo'ldi va bu davr ma'rifatparvarlari taraqqiy etgan mamlakatlarga tenglashish g'oyasini olg'a surdilar.



Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish va rivojlanishida «Yosh buxoroliklar» katta faoliyat ko'rsatdilar.

Jadidlar yangi usuldagи maktab va maorif, ta'lim-tarbiya muammolarini ko'tarib chiqdilar, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, texnika sohasida ibratli bo'lgan Evropa, Sharq mamlakatlаридан о'rnak olish, yoshlarni o'sha mamlakatlarga yuborib o'qitish g'oyalarini olg'a surdilar

Buni yodda saqlang!

Jadidchilik g'oyasini bиринчи bo'lib qrim-tatar mutafakkiri Ismoil Gasprinskiy (1851-1914) ko'taradi va birinchilardan bo'lib bu g'oyani amalga oshirishga kirishadi. U tez fursatda turk dunyosining «g'oyaviy otasi» sifatida shuhrat qozonadi.

Jadidlar harakatining targ'ibotchisi va ko'pgina g'oyalarning muallifi Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 10 mart kuni Samarqandda ruhoniy oilasida dunyoga keladi. Uning otasi imomlardan bo'lib, ilm-ma'rifikatga ixlosmand edi.




Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'z tog'asi ziyoli Muhammad Siddiq yordamida xat-savodini chiqaradi. 1893 yilda otasi Behbudxo'ja vafot etadi. Oilani boqish Mahmudxo'janing zimmasiga tushadi.

Qozilik vazifasidagi tog'asi Muhammad Siddiq uni o'ziga mirzolikka tayinlaydi. Mirzalik vazifasida ishlab turib, muftilikka oid shariat qoidalarini, huquqshunoslik ilmini chuqur o'rgangan Mahmudxo'ja ko'p o'tmay muftilik lavozimini egallaydi.

Keyinchalik Mahmudxo'ja ko'pgina shaharlarga safar qilish va shaxsiy mutolaa orqali nazariy va hayotiy bilimlarini oshirdi.

Anglab oling!

U safarlardan qaytgach, qator kitoblar, ilmiy-nazariy maqlalar yozadi, butun hayoti va faoliyatini Turkiston xalqlarini ma'rifatli qilish, o'zligini tanib olishiga ko'mak berishga baxshida qiladi. Behbudiy o'z uyida maktab ochib, bolalarni bepul o'qitadi.




Buni yodlab oling!

Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma'rifat orqali amalga oshirishni ko'zlardi. U ta'lim-tarbiya xususidagi o'z g'oyalarini amalga oshirishning bosh yo'li sifatida yangi maktablar ochish, unda yoshlarni diniy ilmlar bilan birga, aniq fanlarni ham o'qitish, Yevropacha ta'lim-tarbiyani Turkiston mamlakatlarida keng ko'lamda joriy etishni targ'ib etadi, mahalliy aholini ilm-ma'rifatga da'vat etadi. Mustamlakachilik, zulmat, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashda u faqat ilm-ma'rifatga suyanadi, kuch-qobiliyatini maktab, maorif, diniy, tabiiy ilm va ma'rifatni rivojlantirishga qaratadi.

Buni bilasizmi?

Behbudiy ilm-ma'rifatni targ'ib etuvchi 200 dan ortiq turli maqolalar va o'zbek hamda tojik tillarida qator darsliklar tayyorlab nashr qildirgan.



1912-yilda yozilgan «Padarkush» sahna asarida Behbudiyl ilm, ma'rifat, maorif va umuman, xalq ta'limi va ilmiy zaminga ega bo'lgan pedagogik masalalarini keskin qo'ygan. Jumladan, asarda maktab va oilaning tarbiya sohasidagi talablari bir xil bo'lmasa, ota-onalar bolasini boshqa tomonga tortadigan bo'lsa, bola tarbiyasi tamoman izdan chiqadi degan axloqiy tushunchani ilgari suriladi.


«Padarkush» asos-e'tibori bilan pedagogik qarashlarning badiiy ifodasi bo'lib, unda mustamlaka Turkistonidagi tarixiy sharoitning mahalliy aholi hayotiga, yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri masalalari ham aks etgan.

Bu bizga Behbudiyning pedagogik qarashlari hamisha ijtimoiy hayotdagi eng muhim va murakkab muammolar bilan, o'z davri siyosati bilan bog'lanib ketganligini ko'rsatadi. Zotan, ta'lim-tarbiya, pedagogika, avvalo xalqlar taqdiri, istiqboli xaqidagi fan sifatida hamisha siyosat bilan uzviy boqlikligi ma'lum.

Buni yodda saqlang!

1917-yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida u millatni o'zaro ixtiloslardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishiga, ittifoq bo'lishga chaqiradi. Ammo u o'z orzulariga erisha olmaydi.

Behbudiyl 1919-yil 25 martda ana shu g'oyalar uchun jadid sifatida ayblanib, Shaxrisabzda qamoqqa olinadi, Qarshi shahar begi Tog'aybek buyrug'i bilan qatl etiladi.




Maxmudxo‘ja Behbudiylar haqida quyidagilarni bilishni tavsiya etamiz:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiylar qachon va qaerda tug‘ilgan?
2. Behbudiylar ota avlodi tomonidan qaysi alloma shajarasiga mansubdir?
3. Behbudiylar arab sarfu nahvini kimdan o‘rgandi?
4. O‘z ustida qunt bilan ishlashi natijasida Behbudiylar shariatning qaysi yuksak maqomlari darajasigacha ko‘tarildi?
5. Behbudiylar qaysi yillarda xaj safariga chiqadi?
6. Behbudiyning yozgan darsliklarini aytинг.
7. 1913-yilda nashr etilgan «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnallarida asosan qaysi masalalar e’lon qilingan?
8. Behbudiyning milliy mustaqillik g’oyalari mazmunini tu-shuntirib bering.
9. Behbudiylar dunyoqarashining shakllanishida katta o‘rin tutgan shaxs?
10. Behbudiyning oila muhitida bola tarbiyasiga oid qarashlari mazmuni.
11. Behbudiylar pedagogik g’oyalaring ahamiyati.
12. Behbudiylar qachon maorif komissari etib tayinlandi va u qaysi ishlarni rivojlantirdi?
13. Uning matbuotda e’lon qilingan ilm-ma’rifatni targ‘ib etuvchi maqolalari haqida so‘zlang?
14. Behbudiyning «Padarkush» sahna asari qachon yozilgan, u qachon va qaerda birinchi marta qo‘yilgan?

Behbudiyning jahon xalqlari o‘rtasida do‘stona aloqa o‘rnatish, millatlarning o‘zaro samimiy munosabatlarini rivojlantirish borasidagi ta’limoti o‘zbek pedagogikasi, xalq ta’limi tarixiga qo‘shilgan salmoqli hissadir.

1918-yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho‘rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi.



Allomaning quyidagi fikrlarini tahlil qiling:

Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik, asorat, faqirlik va zarurat va xorliklar - hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir («Padarkush», 155-bet.)

Yoshlar istaydurlarki, millatga va xalq ommasiga xizmat etsalar.... Oldimizda ish ko‘p. Takror arz qilurmizki, yosh va katta bir bo‘lib ishlamoq kerak.... Agar biz ta’lim-tarbiya ishini shu ruhda olib bormasak, Turkistonliklarga na xurriyat qolur, na muxtoriyat bushalur. (Bayoni haqiqat. «Ulug‘ Turkiston» gazetasi, 1917-yil, 12 iyun).

Abduqodir Shakuriy va M.Behbudiy mavzusi yuzasidan mustaqil ishslash uchun savollar:

1. A.Shakuriy va M.Behbudiylarning o‘zaro hayotiy faoliyatidagi o‘xshash tomonlarni tahlil qiling.
2. Jadidchilik harakati Turkiston bo‘ylab yoyilishida xizmat qilgan ma’rifatparvar olimlar taqdiri haqida so‘zlang.
3. Shakuriyning pedagogik ta’limotlari keng tarqalgan hududlar.
4. Shakuriyning ilm-ma’rifat taraqqiyotidagi o‘rni.
5. Shakuriy haqida taniqli olim J.Yo‘ldoshevning ilmiy fiklarini izohlab bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. *M. Behbudiy.* Bayoni soniy (o'qish kitobi). — T., 1907.
2. *M. Behbudiy.* Bayoni haqiqat. «Ulug' Turkiston» gazetasi, 1917-yil, 12 iyun.
3. *A. Zunnunov* va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: «Sharq», 2000.
4. *A. Zunnunov* va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.
5. *R. Mavlonova* va boshqalar. Pedagogika. — T.: O'qituvchi, 2001.
6. *N. N. Azizzo'jaeva.* Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — T., 2003.

13-mavzu: O'ZBEKISTON PREZIDENTI I.A.KARIMOV ASARLARIDA MA'NAVIY TARBIYA VA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Reja:

1. Prezident I.A.Karimov asarlarida ta'lism tarbiya to'g'risida ilgari surilgan g'oyalar va ta'lism tizimini isloh qilish masalalari.
2. I.A.Karimov ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish haqida.
3. I.A.Karimov barkamol inson tarbiyasi haqida.
4. I.A.Karimov o'zligimizni anglash va ma'naviy ildizlarimizni o'rganish haqida.

Hozirgi yangilanayotgan jamiyatning rivojlanish jarayonida inson ijodkor shaxs sifatida baholanmoqda. Bu o'z navbatida, insonni jamiyatning mavhum bir zarrasi sifatida emas, balki unga dunyoni o'zgartiruvchi qudratli kuch, erkin ijodkor shaxs sifatida munosabatda bo'lishni talab etmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimov asoslagan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlokiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluxsiz ta'lism tizimi orqali har tomonlama barkamol fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy istiqlol g'oyasi shakllanayotgan, jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy muhit sog'lomlashayotgan, milliy qadriyatlar, inson

huquqlari erkin tiklanayotgan, ijodiy kuch-qudrati namoyon bo'layotgan sharoitda barkamol shaxsga — bu o'zida ma'naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va saloxiyatga ega bo'lган ijodkor deb ta'rif berish mumkin.

Darhaqiqat, milliy mustaqillikka erishgan O'zbekiston davlati va uning Prezidenti I.A.Karimov o'z xalqini qator asarlari va yutuklari bilan haqiqiy mustaqillikka chorlab turdi. Prezidentning «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iktisodiy istiqbollarining asosiy tamoyillari», «Yuksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili», «Bunyodkorlik — farovon hayot asosi», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Yuksak ma'naviyat - yengimas kuch» singari keyingi asarlari hamda bir qator interv'yu va maqolalari ta'lim tizimining islohotlari va aholi ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishlangan.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar — O'zbekiston milliy mafkurasi shakllanishi va rivojlanishidagi bir-biridan aslo kam bo'lмаган ikki muhim manba, ikki tayanch nuqta, ikki o'q ildizdir.

Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida ham ma'naviyat sohasida amalga oshirish lozim bo'lган ishlar haqida shunday deydi: «Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz — milliy qadriyatlarmizni, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarda boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir»¹.

Kishi ma'naviyatining asosini bilim tashkil qiladi.

¹ Xalq so'zi gazetasi, 2000-yil, 23 yanvar. 17-son.

Buni yodda tuting!


Bilim — bu bir butunlikni tashkil qiluvchi kishilar orasidagi bog'liqlikdir. Bu bog'liqlik shu qismlarning ichki zaruriyatidan kelib chiqadi.

Buni yodda tuting!

Prezidentimiz Islom Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz» nomli asarida ta'kidlaganidek, «Xalq — o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Yolg'onga, aldovga duch kelgan paytda uning asriy qadriyatlari, doimo uyg'oq vijdoni tilga kiradi, nohaqlikka, qabihlikka qarshi kurashga da'vat etadi».

Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oljanob g'oyadir.

Komil inson qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim?



Barkamol avlodni voyaga yetkazish komil insonlarni voyaga yetkazish demakdir. Jamiyatimizning bugungi talabiga ko'ra komil inson qanday talablarga javob berishi lozim?

Komillik yo'li — bu ilmdir. Bir umrga tolibi ilm bo'lishni tarannum etuvchi Bobur Mirzoning quyidagi ruboisiini tahlil qiling.

Kim yorga anga ilm tolibi ilm kerak,
 O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
 Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q
 Men borman ilm tolibi ilm kerak.

Prezidentimiz asos solgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» hamda boshqa asarlarida quyidagi ta'limiylar tarbiyaviy omillar o'z aksini topgan:

- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- Ona tiliga muhabbat;
- Milliy qadriyatlarga hurmat;
- Ayolni — onani ulug'lash;
- Oilaning tarbiya borasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish;
- Umuminsoniy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish;
- Dinning dunyoviylikka zid emasligini anglatish;
- Huquqiy madaniyat — sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish.



Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun savollar:

1. O'zbekistonda tarbiyaning ma'no-mazmuni nimadan iborat?
2. O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning mohiyati va mazmuni.

3. Ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda Prezident I.A.Karimov asarlarining o'rni.
4. G'oyaviy tarbiya qanday maqsadni ko'zlaydi?
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va g'oyaviy tarbiya.
6. Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» tamoyilini qanday tushunasiz?
7. Komil inson g'oyasining mohiyati va mazmunini qanday tushunasiz?
8. O'tmish allomalarimiz ijodida o'z aksini topgan «Komillik», «O'zlikni anglash», «Ma'rifat» kabi tushunchalarni tahlil eting?
9. Tariximizda qanday komillik timsollari bor?
10. Milliy g'urur va uzlikni anglash deganda nimani tushunasiz?
11. Ma'naviyat va ma'rifatga ta'rif bering.
12. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarining mazmun-mohiyatini izohlab bering.

Buni yodda saqlang!

Prezident Islom Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti poydevori ekanligiga kishilar e'tiborini tortdi. O'sha asarda yo'lboshchimiz tomonidan uqtirilishicha, «Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakat kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi», «Uni o'lchab ham, poyoniga etib bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam», «Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur», «Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi», «Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir».

Anglab oling!

Agar dunyoda biron-bir muqaddas, abadiy va hayotiy tuyg'u bo'lsa - bu har bir xalq va millatning milliy ongidir, milliy o'zlikni anglashdir. Milliy o'zlikni anglashning birinchi belgisi — milliy tildir.

Shaxs ma'naviy kamolotining zarur shartlaridan biri — o'z ona tilini bilishdir. Har bir insonning madaniy, ma'rifiy-mafku-

raviy va ma'naviy saviyasi uning o'z ona tilini qanchalik mukammal bilishi bilan belgilanadi.

Eslab qoling!

Til - halqning, millatning qalbidir. Millat uchun til nihoyatda ulug' va mo'tabar, betakror, betimsol boylikdir. Til-millat tirikligining, uning yashab turganligi va faoliyat ko'rsatayotganligining asosidir. Til xalq ma'naviy hayotining asosidir.

Eslab qoling!

Milliy g'urur va o'zlikni anglash — bu millatga mansublikni anglash, o'z xalqi an'analariga, qadriyatlariga, madaniyatiga, ona tiliga sodiqqlikdir.

Qahramon shoir Abdulla Oripov insonning ona tili uning milliy g'ururi ekanligini quyidagi misralarda bayon etadi:

Martabang unutsang mayliga unut,
Maktabing unutsang mayliga unut.
Lekin unutsangchi ona tilingni,
Zahapga aylansin onang bergen sut.

Prezidentning quyidagi fikrlarini yod oling!

1. Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir.
2. Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim.
3. Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir.
4. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir.
5. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etishga erisha olmaymiz.
6. Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir.

7. Kelajakdagи buyuk davlat eng birinchi navbatda bo'lajak fuqarolarning madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur.

8. Ta'lrim tizimini isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy siyosiy iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagи o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi.

Tavsiya etiladigan manbalar:

1. *I. A. Karimov*. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-kitob. — T.: O'zbekiston, 1996.

2. *I. A. Karimov*. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. — T.: O'zbekiston, 1998.

3. *I. A. Karimov*. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. — T.: O'zbekiston, 1998.

4. Barkamol avlod orzusi. — T.: Sharq, 1999.

5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari uchun qo'llanma). — T.: Yangi asr avlod, 2001.

6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (Oliy ta'lim muassasalari uchun qo'llanma). — T.: Yangi asr avlod, 2001.

7. *H.Boboev, Z. G'afurov, Z. Isomov*. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. — T.: Yangi asr avlod, 2001.

8. *B. Ziyomuhamedov* va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. — T.: O'zbekistan milliy ensiklopediyasi, 2000.

9. *O. Musurmonova*. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — T.: O'qituvchi, 1996.

14-mavzu. YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI VA NAZARIYASI

Reja:

1. Ya.A.Komenskiy hayoti va u yashagan davr.

2. Ya.A.Komenskiyning pedagogik faoliyati va asarlari.

3. Ya.A.Komenskiyning pedagogik qarashlari.


4. Ya.A.Komenskiyning umumta'lim g'oyasi va sinf-dars tizimi.

Mashhur donishmand, chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. U o‘zining ongli faoliyatini xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalashdek buyuk ishga bag‘ishladi. Uning xizmati shundaki pedagogika ilmi poydevorini quribgina qolmay, keyingi rivojlanish yo’llarini ham ko‘rsatib berdi.


Buyuk pedagog Yan Amos Komenskiy o‘z Vatani Chexiya nemis feodallari tomonidan og‘ir milliy zulm ostida bo‘lgan va xalqi o‘z ozodligi uchun kurashga otlangan bir davrda yashadi.

Ya.A.Komenskiy 1592-yil 28 mart «Ugorskiy Brod» degan joyda Moravyada tegirmonchi oilasida dunyoga keladi. Uning oilasi ruxoniylar «Chex qardoshlar» jamoasiga mansub bo‘lib, o‘zlarini protestant Yan Gusning davomchisi deb hisoblar edilar.

Ota-onasidan erta judo bo‘lgan Komenskiy jamoa g‘amho‘rligi tufayli Gerbern Universiteti (Germaniya) ta’limini oladi. O‘qishni tamomlagandan keyin Ful’neks shahridagi qardoshlik maktabiga o‘qituvchi qilib tayinlanadi, keyinchalik u Chex qardoshlar mahalliy jamoasining targ‘ibotchisi va rahbarlaridan biriga aylanadi. Komenskiy vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib bordi.




Ya.A.Komenskiy xalqqa bilim berish to‘g‘risida g‘amho‘rlik qilib, fanni xalqning qarashlari bilan birlashtirishga harakat qildi, shuningdek, qardoshlik maktabalaridagi o‘qitish mazmuni va usulalarini takomillashtirdi.



Buni yodda saqlang!

«Buyuk didaktika» jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Unda ta’lim nazariyasi va amaliyotiga doir fikrlar bilan birga maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalash usullari ham bayon etilgan. Barcha o‘g‘il-qizlarga ta’lim berish uchun maktablar ochish, bolalarni o‘z ona tilida o‘qitish, tarbiyalash, xususiy usullarni takomillashirish. Shuningdek, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, shart-sharoitlari, imkoniyatlarini tahlil qilish.

Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o‘rnini benihoya katta ekanligiga ishonadi va tarbiya tufayligina «har qanday boladan haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin», barcha bolalar agar ularga pedagogik jihatdan to‘g‘ri yondashilsa, yuqori axloqli va ma’lumotli bo‘lib yetishishlari mumkin, deb ta’kidlaydi.



Komenskiyning pedagogik qoidalari o‘rganing va tahlil qiling!

1. Bolalarda jismoniy va madaniy kuchlarni ilk yoshlik davridan boshlab izchillikda rivojlantirishni, doimo ularning takomillashishiga ko‘maklashishni talab qiladi.

2. Tarbiya tabiatga uyg'un bo'lishi, tarbiyada barchani hamma narsaga o'rgatish, tabiat ko'rsatmalariga asoslanish, bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish lozim.

3. "Umumiy tabiiy usul buyumlarning tabiatni"dan kelib chiqadi va «inson tabiatining o'zi»ga asoslanadi, masalan, o'qitishni predmet, narsa, buyum bilan umumiy tanishtirishdan, bolalarning uni yaxlit idrok qilishlardan boshlash, undan keyin uning ayrim tomonlarini o'rganishga o'tish zarur.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Bu uch xil tarbiya orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Ahloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshgacha amalga oshadi. Bu davr ichida bola to'rt mакtabni o'qib tugatishi, har biri 6 yil o'qishi kerak deb hisoblaydi.

Komenskiy ta'limumning tabiatga uyg'unligi mezonidan kelib chiqib quyidagi yosh davrlarni belgilaydi. U kishining rivojlanishida to'rt davrni ajratib ko'satadi: go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik davrlari.


Mazkur prinsipning mohiyati quyidagi jadvalda to'liq keltiriladi:

No	Davrlar va yoshlar	Har bir davrning mazmun va mohiyati	Bugungi kunda
1	Go'daklik davri (0-6 yoshgacha)	Ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'sti-rish, qabul qilish, atrofdagi dunyo bilan tanishtirish kabilarga e'tibor beriladi. Ona esa bolada axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish, qulq solishga o'rgatishi kerak. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.	Oila va mакtabgacha tarbiya muassasalari hamkorligida kichkin-toylarga ta'lim va tarbiya berishni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

2	Bolalik davri (6-12 yoshgacha)	Boshlang'ich maktab yoki ona tili xalq maktabi. Bunda o'quvchi (bola) esda saqlash, so'zlash, yozish ko'nikmasini egallashi, geometriya, geografiya, tabiyot fanlarini o'rganishi lozim.	Maktab ta'limi va tarbiyasi orqali yozish, o'qish, xotirada saqlash, o'z ona tili asoslarini egallah, matematik tushunchalarni o'rganish, tabiatga doir tushunchalarga ega bo'lish ko'zda tutiladi.
3	O'smirlik davri (12-18 yoshgacha)	«Lotin maktab»i yoki gimnaziya. Bu o'quv yurtining vazifasi va bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiyot bilimlari, axloq, xudogo'ylik o'qitilishi kerak.	Bu umumiy o'rta ta'lim (5-9-sinflari) va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davriga to'g'ri keladi. Bunda bolalarning intellektual jadal rivojlanishi, ma'lum yo'nalish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, biror yoki bir necha zamонави kasbni egallashlari ko'zda tutiladi.
4	Etuklik davri (18-24 yoshgacha)	Universitet yoki akademiya. Bu o'quv yurtlari o'quv-chining irodasi, shaxsini bir butun o'stirishi kerak.	Bitta soha doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy ma'lumot olish davri (bakalavriat va magistratura) raqobatbardosh, yuqori malakali kadr bo'lib etish davri.

Eslab qoling!

Ya.A.Komenskiy 1670-yilda Amsterdamda vafot etadi. Uning butun hayoti, o'zining so'zlariga qaraganda, «Vatanda emas, balki umrbod va tinimsiz darbadarlikda o'tdi». Ammo u hamisha o'z vatanini qizg'in sevgani va yosh avlodni tarbiyalash ishiga sodiq xizmat qilganligini o'z ilmiy faoliyati davomida isbotlab berdiki, undan ibrat olsa arziydi.



Buni bilasizmi?

Komenskiy materialni mustahkam o'zlashtirib olishiga katta ahamiyat berib, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish, mavzu qisqa, aniq qoidalar asosida berilishi, mashq qildirish, takrorlash kerakligini ko'rsatadi.

U ta'limning izchilligiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlab, mashg'ulotlar tuzilishiga doir shunday fikr bildiradi: «Oldingi material keyingi materialga yo'l oshib berishi kerak», ya'ni yangi material oldingi material o'zlashtirilgandan keyingina bayon qilinishi lozimligi materialning o'zlashtirilishi esa o'z navbatida, ilgarisining mustahkamlanishiga yordam berishi kerak.

Komenskiy birinchi marta mashg'ulotlarda sinf-dars sistemasi zarurligini asoslab beradi, bunga muvofiq bir o'qituvchi bir yo'la butun sinf bilan muayyan o'quv materiali bo'yicha ishlaydi.

Komenskiyning fikriga ko'ra: o'quv yili hamma o'quvchilar uchun bir vaqtida boshlanib, bir vaqtida tugallanishi, mashg'ulotlar ketma-ket dam olish bilan almashinib turishi kerak. O'quv kuni turli sinflarda o'quvchilarning yosh imkoniyatlariiga muvofiq ravishda qat'iy tartibga solinishi zarur.

U sinf-dars tizimini ishlab chiqar ekan, dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uuga vazifa berish kerakligini alohida ko'rsatib o'tadi.

Komenskiy aytadi...

1. «Intizomsiz maktab, suvsiz tegirmondir».
2. «Yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb — o'qituvchilikdir».
3. «Sezgilar bilan idrok qilish mumkin bo'lgan hamma narsani sezgilar orqali idrok qildirish, ya'ni ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'z vositasi bilan; xidlarni-xidlatish; ta'mni-totib ko'rish; ushlab ko'rib-sezilishi mumkin bo'lgan narsalarni ushlatib ko'rish vositasi bilan idrok qildirish kerak. Agar biron-bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yo'la bir necha sezgi organlarini ishga solish lozim» (Didaktikaning oltin qoidasi).

4. «Biz hamma joyda tabiat ketidan borishga qaror qildik, u birin-ketin o‘z kuchlarini ma’lum qilganidek, biz ham akliy qobiliyatlarning izchil rivojlanish tartibini kuzatib borishimiz kerak» (Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta’limgina tabiatga uyg‘un bo‘ladi).



Komenskiyning ayrim pedagogik g‘oyalari mohiyati

Komenskiy bolalarning jismoniy tarbiyasiga alohida etibor beradi. U otalarni, xususan, onalarni o‘z farzandlarining sog‘ligi to‘g‘risida tinimsiz g‘amxo‘rlik qilishga da‘vat etadi va bolalarni parvarish qilish, ovqatlantirish, kiyintirish masalalari haqida ko‘rsatmalar beradi.

Komenskiy o‘ynni bolalar uchun zarur bo‘lgan faoliyat shakli deb biladi. U ota-onalarga bolalarning o‘yiniga halaqit bermaslikni, o‘yinda o‘zlari ham ishtirok etib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solishni tavsiya qiladi. Komenskiy bolalar o‘yining ta’limiy ahamiyatini qayd qilar ekan, o‘yin vaqtida aql nima bilandir band bo‘lishini va hatto ko‘pincha o‘tkirlashishini ta’kidlaydi.

Komenskiy ilk yoshlik davrlaridan boshlab bolalarni faoliyat ko‘rsatishga intilish, rostgo‘ylik, mardlik, tartiblilik, xushmuomalalik, kattalarga hurmatda bo‘lish fazilatlarini tarbiyalashni maslahat beradi.

U bolalarda mehnatga muhabbat va mehnat qilish odatini tarbiyalashga ko'p e'tibor beradi.

Uningcha, mehnat bolalarning kuchi etadigan va ularning o'yin faoliyati bilan puxta bog'langan bo'lishi kerak. Komenskiy oqilona nasihatni, xatti-harakatni, mashq qildirishni, shuningdek, kattalar ning ijobjiy namuna bo'lishini axloqiy tarbiya vositalari deb hisoblaydi.

Ko'rinish turibdiki, Komenskiy bu fikrlari bilan asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada tevarak-atrofdagi narsalar va tabiat hodisalarini kuzatish yo'li orqali ular to'g'risida dastlabki tasavvurlarni hosil qilishni nazarda tutadi.

Mavzu bo'yicha mustaqil tayyorlanish uchun savollari:

1. Ya.A.Komenskiy qachon va qaerda tug'ilgan, kachon vafot etgan?
2. Komenskiy darsliklarini aytib bering.
3. Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari qachon yozilgan, dastlabki nomi nima edi?
4. «Onalar maktabi»dagi asosiy g'oya nima, sharhlang?
5. Komenskiyning maktablar tizimi va ta'limning mazmuniga doir orzularini aytib bering?
6. Komenskiyning sinf-dars tizimini sharhlang.
7. Komenskiyning ko'rsatmalilik prinsipining asl mohiyati.
8. Komenskiyning didaktik talablari nimalardan iborat?
9. Komenskiyning tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish prinsipini tushuntirib bering.
10. Didaktikaning oltin qoidasi — Komenskiy talqinida.
11. Komenskiy asarlarini keltiring.
12. Komenskiyning yoshlik davri tarbiyasiga doir prinsiplarini izohlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. — T.: «Sharq». 1999.
2. A. Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan». 1996.
3. K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi (ma'ruzalar matni). 2-jild. — T., 2001.
4. Pedagogika tarixi / M.O.Shabaev tahriri ostida. — T.: O'qituvchi, 1985.
5. Volkov G.N. Etnopedagogika. — Cheboksara, 1974.

15-mavzu: FRIDRIX DISTERVERGNING RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM DIDAKTIKASI

Reja:

1. Distervergning hayoti va faoliyati.
2. Disterverg umuminsoniy tarbiya g'oyasi to'g'risida.
3. Disterverg aqliy (intellektual) tarbiya to'g'risida.
4. Distervergning rivojlantiruvchi ta'lism didaktikasi. Ta'limga 33 qonun va qoidasi.
5. O'qituvchining o'z ustida doimiy ishlashi.

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg 1790 yil Vestfaliyadagi Zigen sanoat shaharchasida huquqshunos rahbar oilasida tug'ildi. Disterverg o'zi o'qigan mактабидаги dogmatik ta'limga umrbod nafrat bilan qaraydi.

1808-yil Disterverg Gerborn universitetiga o'qishga kiradi, u erda matematika, falsafa va tarixni chuqur o'rganadi, so'ngra Tyubigen universitetiga o'qishni o'tkazadi va 1811-yili shu universitetni tamomlaydi. Ozgina fursatda o'z ustida tinmay ishlab falsafa fanlari doktori unvonini oladi. Disterverg talabalik chog'idayoq Russo, Pestalossining pedagogika sohasidagi g'oyalari bilan tanishadi.

1813—1818-yillari Frankfurt Mayn shahridagi namunali maktabda o'qituvchilik qiladi.

Disterverg shvesariyalik olim Pestalossining ilg'or pedagogik qarashlariga astoydil muxlis bo'lib qoladi.

U xalqiga ma'rifat — ziyo nurini tarqatuvchi fidoiy murabbiy, ustoz bo'lishga qaror qiladi. Dastlab, Myors-Reynda, so'ngra esa Berlinda o'qituvchilarни tayyorlash maktabiga boshchilik qiladi. Disterverg pedagogika, matematika va nemis tilidan tayyorlov guruuhlariga dars beradi. Boshlang'ich tajriba maktablarida ham o'qituvchilik qiladi. 1835-yili «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» degan kitobini nashr qildiradi. Matematika, nemis tili, geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar nashr qiladi.

Bilasizmi!

Disterverg 1827-yildan to umrining oxirigacha «Tarbiya va ta'lif uchun Reyn varaqlari» degan jurnal chiqarib turdi. Shu jurnalda pedagogikaning turli muammolariga bag'ishlab 400dan ortiq maqolasi nashr qilindi. Boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash ishini tubdan yaxshilash uchun kurashdi.

Dogma (yunon. aqida) dalil-isbotsiz har qanday holatda ham o'zgarishsiz qabul qilinadigan qoida, fikr, ta'lifot.

Dogmatizm (yunoncha aqidaparstlik) bir tomonlama, qotib qolgan, dogmalarga tayangan holda fikrlesh. Dogmatizm shaxsnинг obro'-e'tiboriga ko'r-ko'rona e'tiqod qilish. Eskirgan aqidalarni, qoidalarni yoqlashga asoslanadi.

Buni yodda saqlang!

Nemis xalqi Distervergning dastlab Umum Germaniya o'qituvchilar ittifoqi raisi, Prussiya deputatlar palatasiga o'zlarining vakili qilib sayladilar. Disterverg hayot chog'idayoq? «Nemis muallimlarining muallimi» degan faxrlı unvonga sazovor bo'ladi

Disterverg umrining oxiri kunigacha ijtimoiy pedagogika ishlari bilan shug'ullanadi. 1866-yil vabo kasali bilan vafot etadi.

Buni bilasizmi?

Disterverg umuminsoniy tarbiya g'oyasini himoya qilib chiqadi, shu g'oyaga tayanib pedagogika masalarini yuqori pog'onaga ko'taradi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiya-liklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolarning tarbiyalab yetishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o'z xalqiga bo'lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog'langan holda rivojlanishi lozim. «Inson - mening nomim, nemis - mening laqabimdir» deydi u. Disterverg Pestalossi singari, tabiyaning eng muhim prinsipi tabiatga uyg'un bo'lishdir, deb hisoblaydi.

Distervergning pedagogik faoliyati

1847-yil Disterverg Berman o'qituvchilar tayyorlash mektebi direktorligi vazifasidan bo'shatiladi. Uning olib borgan pedagogik faoliyati hukumat doirasidagi kishilarga ma'qul bo'lmaydi.	1848-yil Disterverg herkovlarning maktab ustida vasiylik qilishini tu- gatish va mak- tab ustidan nazorat qili- shni ruho- niyga topshir- masdan, mutaxassis- pedagogga topshirishni talab qilib chiqadi.	1850-yilda Disterverg dadillik bilan ochiq aytgan fikrlaridan hukumat va nemis jamiyatni norozi bo'l- ganligi bois iste'foga chiqadi.	1851-yil «Pedagogika yillik jurnalı» degan to'plam chiqarib tu- radi. Bu jurn- alda reaksiyon kuchlarni dadiq fosh qilib boradi. Yana faoliya- tini davom ettiradi.	1854-yildan 1859-yilgacha Disterverg zo'r g'ayrat bilan makteb o'qituvchilariga yangi uslubiy qo'llanmalar yaratadi. Yangi darsliklar ustida izlanish olib boradi.
--	---	---	---	---

Buni yodda saqlang!

Disterverg tarbiyaning oliy maqsadini shunday belgilaydi, bu haqiqatga, bu go'zallikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlik. Tarbiya to'g'risidagi fanning asosi bu psixologiya fani deydi.

Disterverg aqliy ta'limning asosiy vazifasi, bolalarning intellektual kuchlarini va qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Umuman sof rasmiy ta'lim bo'lmaydi, lekin o'quvchining o'zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qimmatlidir, deb uqtiradi.

Distervergning pedagogikani rivojlantirishda tutgan o'rni

Disterverg rivojlanib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonuni va qoidasini bayon qilib berdi.

Disterverg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim:

1. Yaqindan — uzoqqa;

2. Oddiy narsalardan — murakkab narsalarga;
3. Osonroq narsalardan — qiyinroq narsalarga;
4. Ma'lum narsadan — noma'lum narsaga
o'tish kerak degan qoidalar bilan bog'langan ta'lmdir.

U mustahkam o'zlashtirishga o'sha vaqtdayoq ko'p e'tibor beradi. «O'quvchilar o'rganib olgan narsalarni unutib qo'ymasliklariga harakat qil» degan qoidani ilgari suradi, ya'ni o'tilgan mavzu, materialni esdan chiqib qolmasligi uchun tez-tez qaytarib turishni maslahat beradi. Distervergning qoidalaridan biri «Asoslarni o'rganishda shoshilma» deydi. Distervergning fikricha, yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi hamda o'z kasbini va bolalarini sevishi kerak. «O'qituvchi muttasil o'z ustida ishlashi lozim, shundagina u o'quvchilarini bilim egallashiga matonat bilan yondashadi, o'z yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga oladigan qilib tarbiyalaydi. U o'qituvchining mustahkam iroda kuchi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqko'l, talabchan bo'lishi bilan birga adolatli bo'lishi zarur, shundagina o'quvchilar orasida obro' qozonish mumkin» deb yozadi u.

Distervergning rivojlantirib boruvchi ta'lim didaktikasi va uning darsliklari boshlang'ich ta'lim maktabalarini taraqqiy ettirishda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari XIX asr o'rtalarida Rossiyada ham keng tarqaldi.

XX asr boshlarida GDRda Hukumat tomonidan «Disterverg nomidagi medal» ta'sis qilinib, buyuk pedagogning hurmati munosib baholandi. Bugunga kelib Germaniyada eng yaxshi o'qituvchi va xalq maorifi xodimlari shu medal bilan mukofotlanadi, GDRda Disterverg asarlarini to'la to'plami nashr qilindi.

Mustaqil tayyorlash uchun nazorat savollari:

1. A. Distervergning tarjimai holi va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. U qanday g'oyalarni ilgari surdi?
3. «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» degan kitobida qanday fanlarni chuqur o'rganishga e'tibor qaratdi? Izohlab bering.
4. «Rivojlantiruvchi ta'lim didaktikasi» deganda nimani tushunasiz?

5. Tarbiyaning oliy maqsadini Disterverg nima deb belgilaydi?
6. O'qituvchi qanday bo'lishi kerak deydi?
7. Disterverg qanday maktabni taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatdi?
8. Disterverg «Inson mening nomim...» degan fikrini davom ettiring va izohlab bering!
9. Uning ishtirokida qanday jurnallar nashr etildi?
10. Disterverg ta'limning qaysi turiga qarshi chiqdi? Izohlab bering: nima uchun?
11. Tarbiya to'g'risidagi fanning asosi deb u qaysi fanni ko'rsatdi?
12. Disterverg maktab ommanning nazorati ostida ish olib borishi kerak, deydi. Izohlang.

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. N. A. Alekstantinov, M. F. Shabaeva. Pedagogika tarixi. — T.: O'qituvchi, 1976.
2. Ensiklopediya lug'ati. — T., 1988. — 248-bet.
3. Pedagogika tarixi / M. Shabaeva tahriri ostida. — T.: O'qituvchi, 1985.

16-mavzu: K.D.USHINSKIYNING PEDAGOGIK TIZIMI

Reja:

1. K.D.Ushinskiyning hayoti va pedagogik faoliyati.
2. K.D.Ushinskiyning tarbiya san'ati, axloqiy va mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari.
3. K.D.Ushinskiy didaktikasi va ta'lim metodikasi to'g'risida.
4. K.D.Ushinskiyning darslik kitoblari.

Konstantin Dmitrovich Ushinskiy (1824-1870) Tulada, yer mulki uncha katta bo'limgan dvoryan oilasida tug'ildi hamda bolalik va o'smirlik yillarda otasi rahbar bo'lgan Novgorod Seversk gimnaziyasida umumiy ma'lumot oladi.

K.D.Ushinskiy 1840 yilda Moskva universitetining adliva (yuridik) fakul'tetiga o'qishga kirdi, talabalik yillarda mustaqil ravishda o'z bilimini oshirib, ma'rifat egasi bo'ldi.

Ushinskiy rus, nemis va fransuz tillarida chop etilgan adabiyotlarni o'qib o'rganadi. Universitetni tamomlagandan keyin 22 yoshida Yaroslavldagi adliya liseyida qomus (ensiklopediya), qonunshunoslik, davlat huquqi va moliya fanlari kafedrasiga professor lavozimini bajaruvchi qilib tayinlanadi. U talabalarda ilm-fanga havas tug'dirishga, ular qalbida xalqqa muhabbat tuyg'usini uyg'otib, unga xizmat qilish uchun tayyor turish hissini tarbiyalashda harakat qildi. U talabalarни xalqning ehtiyojlarini o'rganishga, xalqqa yordam berishga chaqirdi.

Bu hol lisey raxbarlariga, reaksiyon kayfiyatdagi professorlarga va gubernatorlarga yoqmadi, albatta. Ular Ushinskiyni siyosiy jihatdan ishonchga noloyiq professor deb ayblay boshladilar, uning har bir qadamini maxfiy kuzatib turadigan bo'ldilar. Oxir-oqibatda hasadgo'ylar qator bo'xtonlari bilan uni «yomon otliq» qilib, liseydan bo'shab ketishga majbur qildilar.

Boshqa o'quv yurtlariga o'qituvchilik ishiga kira olmagan Ushinskiy moddiy jihatdan qattiq muhtojlikka tushib qoldi, kun ko'rish uchun qiyinchilik yillari boshlandi. Katta qiyinchiliklar bilan u Ichki ishlar ministrligining mahkamalaridan biriga arzimagan maosh evaziga mayda chinovnik lavozimiga ishga kirdi. Bu vazifada u to'rt yil ishladi, jurnallarda tasodifiy mayda adabiy ishlar bilan shug'ullandi.

Ushinskiy qator institut va boshqa ta'lif muassasalarida ishlab, pedagogik faoliyatini shakllantirdi, darsliklar tuzdi va ta'lif tizimiga qator islohotlar kiritishni talab qildi. U har gal o'z progressiv faoliyati bilan amaldorlar noroziligiga va qarshiliklariga uchradi. Uni chet elga xizmatga jo'natishdi. Aslida u surgun edi.

Rossiyada boshida kechirganlarining hammasi Ushinskiy sog'ligiga ta'sir qildi, eski o'pka kasalligini kuchaytirib yubordi. Oq'ir kasallik. qizg'in-ijtimoiy pedagogik faoliyat iste'dodli pedagogning sog'ligiga zarar etkazdi va o'limini tezlashtirdi. K. D. Ushinskiy 1870 yil 22 dekabrda vafot etdi. U Kiev yaqinidagi Vidubisik monastiriga dafn qilingan.

Bilib qo'ygan yaxshi!


1. K.D.Ushinskiy 1854—1859-yillarda Gatchina yetimlar institutida rus tilidan katta o'qituvchi, keyin esa sinflar inspektori bo'lib ishladi.

2. 1859-yildan 1862-yilgacha Ushinskiy Smolniy aslzoda qizlar institutining sinflar inspektori bo'lib ishlagan.

3. 1862-yilda K.D.Ushinskiy daxriylikka va dvoryan qizlarni «mujiklar» tarbiyalashiga imkon yaratganligida ayblanib, institutdan bo'shatiladi va darslik tuzish bahonasi bilan chet elga xizmat safariga yuboriladi. Bu safar aslida niqoblangan surgun edi.

4. Ushinskiy Germaniya va Shvesariyadagi xotin-qizlar o'quv yurtlarini, bolalar bog'chalari, yetimxonalar va maktablarni sinchiklab tanqidiy o'rghanadi.

5. K.D.Ushinskiyning yozgan asarlari quyidagilar:



Buni bilasizmi?


1. Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi fikr Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir.

2. Bola, deb hisoblaydi Ushinskiy, ilk yoshlik chog'idayoq xalq madaniyati elementlarini o'zlashtira boshlaydi, bularni avvalo ona tilini bilish yo'li bilan o'rghanadi.

3. Ushinskiy fikricha, tarbiyaning eng muhim xususiyati shundaki, u barcha vositalar va usullar yordami bilan bolaga har jihatdan ta'sir etishga, uning kamol topishiga, g'oya va xislatlarining voyaga yetishiga, iroda va xulq-atvorining mustahkamlanishiga ta'sir etadi.



K.D.Ushinskiy 1857-yildan e'tiboran «Jurnal dlya vospitaniya» sahifalarida o'z maqolalari bilan hamkorlik qila boshladi.




Ushinskiyning pedagogikani rivojlantirishda tutgan o'rni

K.D.Ushinskiy original rus pedagogikasi, jumladan, maktabgacha tarbiya pedagogikasining asoschisidir; u jahon pedagogika

g'oyalarining rivojlanishiga juda muhim hissa qo'shdi. Ushinskiy chet eldag'i tarbiya, shu jumladan maktabgacha tarbiya va ta'lif nazariyasi hamda tajribasini chuqur tahlil qildi, shu sohadagi muvaffaqiyatlar va kamchiliklarni ko'rsatdi va bu bilan boshqa xalqlardagi pedagogika taraqqiyotini yakunlab berdi.

Ushinskiyning ko'pgina fikrlari hozirgi vaqtida ham o'z mohiyatini yo'qotgan emas.

Mazkur ta'lifotni yod oling!



Ushinskiyning dars va o'qitish usullari haqida

Ushinskiy ta'lif-tarbiya ishida o'qituvchilarining faolligiga va ta-shabbuskorligiga tayanish kerakligini uqtirar ekan, ta'lif bolalarga mukammal bilim bermog'i va malakalar hosil qilishi uchun aniq-ravshan, shu bilan birga tartibli va izchil bo'lmog'i lozim deb ta'kidlaydi.

Ushinskiy bilim to'g'risidagi o'z nazariyasiga hamohang bir suratda, bilim tizimini tashqi olam to'g'risidagi o'zaro uzviy


bog‘langan bir butun bilim deb tushunadi. Uningcha, tizim bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

Ushinskiy ta’lim jarayonidagi ko‘rgazmalik bola bevosita idrok etadigan aniq obrazlar asosida bo‘lishini ta’kidlaydi.

Ushinskiy ko‘rgazmalik tushunchasiga suratlar, kolleksiyalar, modellar, jadvallar va boshqa ko‘rgazma qurollarni, biz ko‘rib turgan olamdagи buyumlar va hodisalarni, shuningdek, bolaning turmush tajribasini va badiiy asarlardan aniq obrazlar orqali idroklangan hayotiy voqealarni ham kiritgan.

Ushinskiy ko‘rgazmali ta’lim usulini mukammallashtirdi, suratlardan foydalanib, bolalarga hikoya qilib berish va bolalarning suratlarga qarab so‘zlab berishlari usullarini asoslab, bu usulning bir qancha aniq qoidalarini yaratdi. Suhbat uchun foydalanilgan suratlarni sinf devoriga osig‘lik qoldirish lozimligini, bu suratlar o‘tilgan darslarning ko‘chirmasi bo‘lishini va bolalarning o‘qib o‘rganib olishlarini, xotirlashga yordam berishini uqtirdi.

Ushinskiy taklif etgan o‘quv rejasi quyidagilarni qamragan edi:



Ushinskiy o‘zining barcha nazariy va amaliy ishlarini boshlang‘ich maktabni keyingi umumiy ma’lumotning chinakam poydevori bo‘la oladigan qilib tashkil etilishiga qaratdi. Binobarin, Ushinskiy o‘z xizmatlari bilan Rossiya boshlang‘ich ta’limga asos soldi.

Ushinskiy aytadi...

1. Hayotimning birdan-bir maqsadi — o‘z vatanimga mumkin qadar ko‘prok foyda yetkazishdir; binobarin, men o‘zimning butun qobiliyatimni shu maqsadga qaratishim kerak.
2. Bola o‘z tevarak-atrofidagi kishilarning ma’naviy hayotiga faqat ona tili vositasida kirib boradi va aksincha, bolaning tevarak-atrofdagi olam faqat o‘sha muhit - ona tili vositasida unda o‘zining ma’naviy tomoni bilan aks etadi.
3. Til — fikrdan chetlashgan biron-bir narsa emas, balki, aksincha, unda asoslanayotgan va muttasil undan paydo bo‘layotgan uning organik maxsulidir.
4. Tarbiya kishida mehnat qilish odatini va mehnatga muhabbat hissini rivojlantirish kerak; u kishiga hayotda o‘zi uchun ish topib olish imkonini berishi zarur.
5. Har qanday fanning o‘qitilishi shubhasiz shunday yo‘ldan borishi kerakki, bunda tarbiyalanuvchi hissasiga faqat uning yosh kuchi etadigan miqdordagi mehnat qolsin.
6. Kishining organizmi aqliy mehnatga oz-ozdan, ehtiyyotlik bilan o‘rganib borishi kerak, lekin shu tarzda ish ko‘rib, undan uzoq davom etadigan aqliy mehnatni oson va organizmiga hech bir zarar etkazmay bajarish odatini hosil qilish ham mumkin.
7. Bolaning xonasini chiroyli buyumlar bilan bezating, lekin bola uning chiroyligini tushuna oladigan bo‘lsin.
8. Bolalar tarbiyachisi pedagogik iste’dodni egallagan, mehribon, muloyim, lekin shu bilan birga qat’iy xarakterli, o‘zini butunlay shu yoshdagi bolalarga bag‘ishlagan va bu ishga g‘oyat darajada berilgan, bolalarni mashg‘ul qilish uchun kerak bo‘lgan hamma narsani o‘rganib olgan shaxs bo‘lishi kerak.

Ushinskiyning pedagogik g‘oyalari va talablarini o‘rganining!

1. Tarbiyaning xalqchilligi g‘oyasi.
2. Bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ona tilining o‘rni.
3. Ta’lim va tarbiyaning psixologik asoslari.

4. Maktabgacha tarbiya nazariyasi asoslari.
5. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqida.
6. Bola faoliyatida mehnat va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida.
7. Oila tarbiyasi haqida.
8. Didaktik ta'limotining mohiyati.
9. Dars va o'qitish usullari haqida.

Mustaqil tayyorlanish uchun nazorat savollari:

1. K.D.Ushinskiy qachon va qaerda tug'ilgan, qachon vafot etgan?
2. Xalqchillik g'oyasi nima? U nimaga tayanadi?
3. Ona tili va xalq madaniyati uyg'unligi.
4. Ushinskingin fizologiya va psixologiyaga bo'lish munosabatini tu-shuntiring.
5. Bolalarni axloqiy tarbiyalash usullari va vositalari Ushinskiy talqinida.
6. Axloqiy tarbiyaning zaruriy sharti nima?
7. Ushinskiy ta'limotida o'yinning maktabgacha bolalar hayotidagi o'rnnini izohlang.
8. O'yinchoqlarning tarbiyaviy ahamiyati.
9. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar.
10. Oila tarbiyasining asosiy mohiyati va huquqi.
11. Ushinskiyning dars va o'qitish usullarini izohlang.
12. Ushinskiy ta'limning o'zgarmas qonuni deb nimani biladi?
13. Ushinskiyning tarbiya san'ati haqidagi fikrlarini izohlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: «Sharq», 2000.
2. A. Zunnunov va boshqalar. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. — T.: «Fan», 1996.
3. Pedagogika tarixi / M.F.Shabaeva tahriri ostida. — T.: «O'qituvchi», 1985.
4. K. Hoshimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

17-mavzu: IQTISODIY RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA'LIM TIZIMI (AQSH VA YAPONIYA MISOLIDA)


Reja:

1. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatalardagi ta'lismiz tizimi tasnifi.
2. AQShda ta'lismiz tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari
3. Ta'lismi «tabaqalashtirish» usullari
4. Yaponiya ta'lismining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari
5. Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasi

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'limgardiy ishlaringin yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarni o'rganish orqali biz mustaqil O'zbekistonda milliy ta'lismiz tizimlarini yangidan tashkil qilishda boy manbalarga ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limganda davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Bugungi ta'lismiz tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlaringin yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Xalq ta'limi muassasalarida chet el ta'limi o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarini voqif qilishda BMTning O'zbekistonidagi vakolatxonasi, elchixonalar AQShning Tinchlik korpusi mutaxassislar, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lismi tabaqalashtirish eng dolzarb masalaga aylangan. O'quv jarayonini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha AQShda juda ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh tizimidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lismiz tizimlarida qo'llash yosh, mustaqil Respublikada o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Buni eslab qoling!




AQShda navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha qat'iy amal qilinadi.

9 sinfni bitirgan o'quvchilar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta mactablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.


1. Kasb-hunar ta'limi
2. Biznes ta'limi
3. Savdo sanoat ta'limi
4. Qurilish ta'limi

Buni yod oling!



Buni bilasizmi?

AQShda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestasiyalar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'quvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida test sinvlaridan o'tkaziladi. O'g'il-qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyatini ham aniqlanadi.



Buni bilasizmi?

Maktablar ta'til vaqtida ham ishlab turadi. To'garaklar, qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Maktablarda ta'lim televedeniyasi, elektron til laboratoriysi, radioapparatura, komp'yuter va hokazolarni qo'llash yo'lga qo'yilgan.

O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

XX asr arafasida AQShda yangi dastur e'lon qilindi. «2000 yilda Amerika ta'lim strategiyasi»

Mazkur dastur turli yo'nalishda bo'lib, quyidagi maqsadlar belgilangan:

1. 2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda bo'lishi;
2. Aholining 90 % oliy ma'lumotli bo'lishi. O'quvchi talabalarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari;

3. Talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlash-tirishda jahonda eng oldingi o'rinalariga chiqishlari;

4. Har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari;

5. Maktablarda, oliy ta'limda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Bu AQSh ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinalardan birini egallaydi

AQShda majburiy o'rganiladigan fanlar ingliz tili, matematika tabiiy fanlar. Bu fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadi.

Qolgan predmetlarni tanlash o'quvchilar, talabalar va otolonalar ixtiyorida amalga oshiriladi.

Yaponiya

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867—1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani:

Birinchi — boyish;

Ikkinci — g'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi.

Bilasizmi!

1872-yil «Ta'lim haqidagi qonun» qabul qilindi. Bunda Yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. 1908-yilda Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

1946-yili qabul qilingan Konferensiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari belgilab qo'yilgan

Yaponiyada hozirgi zamon ta'lrim tizimining tarkibi quyidagicha

1.	Bolalar bog'chalari —	Ta'larning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Ular yosh xususiyatiga qarab 3, 2, 1 yillik ta'lrim kurslariga jalb qilinadilar (muktabsaga tayyorlov).
2.	Majburiy ta'lrim —	Ta'larning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Bunda 6 yillik boshlang'ich, muktab va 3 yillik kichik o'rta muktab kursi o'tiladi. 9 yillik bu ta'lrim majburiy bo'lib, bepul o'qitiladi, tekin darsliklar beriladi.
3.	Yuqori bosqich o'rta maktabi —	Bu muktab ta'lrim yo'nalishining 10-11-12 sinflarini o'z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich muktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'lmlari mavjud. Muktabda o'qish ixtiyoriy bo'lib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar qabul qilinadi.

Buni yodda saqlang!

Dorilfununlar, kichik kollejlar Yaponiyada
oliy ta'lrim tizimini tashkil etadi

Yaponiya muktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, kelasi yilning 31 martida nihoyasiga yetadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta muktablarda o'quv
yili uch semestrga bo'linadi

Birinchi semestr:
Aprel
May
Iyun
Iyul } 4 oy

Ikkinci semestr:
Sentyaber
Oktyabr
Noyabr
Dekabr } 4 oy

Uchunchi semestr:
Yanvar
Fevral
Mart } 3 oy

O'quv yili Yaponiyada 240 kun bo'lib AQSh dan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat bo'lib ertalab 8^{00} dan boshlanib, 3^{00} gacha davom etadi.

Buni bilasizmi!

Yapon maktablarida EHM va o'quv texnik vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay mutaxassislarining fikricha, asosiy e'tibor o'qituvchining nutq madaniyatiga va darsliklariga qaratilmog'i kerak. Ularning fikricha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnnini hech qanday takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo'yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo'nalishi to'g'ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O'qituvchilar:




Maktab direktori bo'lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo'lish shart.

Yapon o'qituvchilarining jamiyatda tutgan obro'-e'tibori katta, ularning maoshlari ham yuqori bo'lib, 74% o'qituvchilar jamoasi kasaba uyushmasiga a'zo. Bu ularga ta'lim mazmuni va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi. Yapon o'qituvchilari 5 yilda malaka oshirish kurslarida o'qyidi. Yapon maktablari dasturi 10 yilga mo'ljalanib, har 10 yilda dasturlar o'zgaradi. Dasturdagi yillik o'zgarishlar o'qituvchilarga anjumanlar o'tkazish yo'li bilan etkazib boriladi.

Dorilfununga katta o'rtalik maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. 460 ta universitet bo'lib, shundan 331 tasi xususiy, qolgan 129 tasi davlat tasarufidagi dargohlardir.

Eslab qoling!

Yaponiya «Universitet kishini bilim va kasbga yo'naltiradi xolos, uni rivojlantirish va mukammallashtirish har bir bilim oluvchi talabaning o'ziga bog'liq» deb hisoblaydilar



Universitetdan haydab yuborish mumkin emas 4 yillik o'qishdagilar masalan 5-6-7 yilgacha cho'ziladi, ya'ni o'qish muddatini cho'zish mumkin.

Yapon universitetlarida asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Bilasizmi!

Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatdan Yaponiya jahonda 2-o'rinda turadi. Ming kishiga 190 ta oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. AQShda har ming kishiga 294 ta, Buyuk Britaniyada har ming kishiga 138 nafar, Fransiyada har ming kishiga 115 nafar mutaxassis to'g'ri kelishi olimlar tomonidan aniqlandi.

Ijtimoiy vazifani bajaruvchi maktab - o'quv muassasalarini yaponlar — olg'a siljishni ta'minlovchi dargoh deb qarashadi. Ular xalq tomonidan kuchli e'zozlanadi.

Yuqorida gildan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlikda shakllangan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. Etiborli yana bir tomoni shundaki, Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay, jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar AQSh, Fransiya, Germaniya, Angliya davlatlarining ilg'or pedagogik ish tajribalari ijodiy o'zlashtiriladi.

Respublikamiz Oliy majlisining 1-chaqiriq IX — sessiyasida ta'limga oid ikki muhim hujjat - «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi mamlakat ta'limini jahon andozalariga, rivojlangan xorijiy

davlatlardagi ta'lim - tarbiya va maktab saviyasiga olib chiqishda ulkan voqeа bo'ldi.

Bizning mamlakatimiz jahonda eng ilg'or maktablar bo'lib qolishiga Respublika rahbariyati va hukumati tomonidan hamma shart sharoit yaratilmoqda. Bizning ta'lim tizimlarimiz ham jahonda e'tirof etilgan ta'lim tizimlaridan biridir. Shu tufayli ham AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'limining ustalari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda Respublikamizdagi ta'lim tizimiga yuqori baho berildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamiz xalq ta'limi xodimlari oldida hozirgi kunda eng muhim vazifa, mustaqil O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimlarini istiqlol ruhi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogik an'analar bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarni o'zlashtirish, yangi-yangi samarali o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahon davlat standartlari darajasiga olib chiqishdir. Buning uchun esa bizning iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlardagi quyidagi ilg'or tajribalarni ta'lim tizimizda qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Chunonchi:

Agar biz AQSh pedagogikasidagi:

- a) bolani o'z kuchi-imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- b) o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash;
- v) bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g'ururini erga urmaslik;

g) o'quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish;

d) Vatanga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k

Yaponiya ta'limidagi:

- a) bolani maktabga puxta tayyorlash;
- b) kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyatini kuchaytirish;
- v) o'quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
- g) o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
- d) yosh talant sohiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Mavzu yuzasidan topshiriq.

1. Yaponiya ta'lim tizimining qaysi jihatlari sizni qiziqtiradi? Izohlang.
2. AQShning ta'lim tizimidagi yangiliklar nimalardan iborat.
3. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimi bilan Mustaqil O'zbekiston ta'limi tizimidagi o'xshashliklarni izohlab bering.
4. Yaponiyada o'qituvchi kadrlar tayyorlash malakasini sharhlang.
5. AQShda ta'lim tizimi qanday tuzilishga ega.
6. Jahonda eng yetakchi o'rinda turgan (oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan) davlatlarni sanab bering.
7. Texnika jihatdian rivojlangan Yaponiyada o'qituvchi va o'quvchi munosabati qanday shakllantirilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. S. Nishonova. Pedagogika tarixi.
2. «Pedagogika tarixi» ma'ruzalar matni.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijda ta'lim. — T.: Sharq, 1995.
4. A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: Sharq, 2000.
5. Hasanov R. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim-tarbiya. — T.: MRDI, 2000.
6. Pedagogika tarixi / M.F.Shabaeva tahriri ostida. — T.: O'qituvchi, 1985.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
<i>1-mavzu.</i> Eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ta'lim-tarbiya masalalari (VII asrgacha).....	6
<i>2-mavzu.</i> Hadis ilmining paydo bo'lishi va mashhur muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.....	15
<i>3-mavzu.</i> Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari (IX-XIII asrlar).....	22
<i>4-mavzu.</i> Abu Ali ibn Sino ta'lim tarbiya haqida.....	27
<i>5-mavzu.</i> Yusuf Xos Xojibning hayoti va ijtimoiy faoliyati Uning «Qutadg'u bilig» asarida ta'lim va axloq muammolari.....	34
<i>6-mavzu.</i> Kaykovusning «Qobusnom» asarida ta'limiy-axloqiy muammolar.....	43
<i>7-mavzu.</i> Ahmad Yugnakiyning axloqiy qarashlari	50
<i>8-mavzu.</i> Temuriylar davrida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti (Amir Temur, Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning ta'limiy ahloqiy qarashlari).....	53
<i>9-mavzu.</i> Alisher Navoiy ta'lim to'g'risida.....	67
<i>10-mavzu.</i> Abdurahmon Jomiy va Jaloliddin Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.....	74
<i>11-mavzu.</i> Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.....	88
<i>12-mavzu.</i> Abdulqodir Shakuriy va Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik faoliyati	96
<i>13-mavzu.</i> Prezident I.A.Karimov asarlarida ma'naviy tarbiya va ta'limni isloh qilishning asosiy yo'naliishlari.....	104
<i>14-mavzu.</i> Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariyasi.....	110
<i>15-mavzu.</i> Fridrix Distervergning rivojlantiruvchi ta'lim didaktikasi.....	118
<i>16-mavzu.</i> K.D.Ushinskiyning pedagogik tizimi.....	122
<i>17-mavzu.</i> Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim tizimi (AQSh va Yaponiya misolida)	130

12 120c.

УДК: 371(09)571.1(075)

ББК 74.03я73

TOQUV ZALI

GULMUROD NIYOZOV, MALOHAT AHMEDOVA

PEDAGOGIKA TARIXIDAN SEMINAR MASHG'ULOTLARI

Toshkent — «Noshir» — 2011

Muharrir O. Abdullayev

Badiiy muharrir Sh. Odilov

Texnik muharrir D. Xamidullayev

Bosishga ruhsat etildi 07. 07. 2011. Bichimi 60x84^{1/16}, „Times TAD“ garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘ 8,0

Nashr b.t. 8,75 Adadi 500 nusxa.

Buyurtma № 26

MChJ «NOSHIR» nashriyoti, Litsenziya AI №096
Toshkent sh., Langar ko‘chasi 78-uy.

MChJ «NOSHIR» O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma
korxonasining bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Langar ko‘chasi 78-uy